In the 21st century, it is fundamentally essential for children to learn English from a young age. English knowledge will help to open many opportunities for them in the future and it will be invaluable in their future careers. However, teaching English to children is not an easy job. But it is also not difficult, if teachers already know how to do it. Many teaching positions involve teaching children - a unique experience that is both challenging and fun [1.5]. Compared to adults, children are more energetic, have shorter attention spans, and learn language according to specific stages of development; these present planning challenges for the teacher. The key to teaching English to children is to understand the principles of language acquisition and apply it in ways that keep children motivated to learn. There are a number of interesting games in the process of teaching English. It is worth mentioning that when teaching language to children, it is necessary to use such games in which all pupils participate equally and learn new things from the lesson. For example, new vocabulary can be memorized, if this process is repeated every day, pupils' vocabulary increases to a higher level.

There are some types of games can be implemented to make learning a foreign language interesting: [4. 46-53].

Board Race

Board Race is a fun game that is used for revising vocabulary. It can be used at the start of the class to get pupils active. It is a great way of testing what pupils already know about the subject about to teach. This is best played with 6 pupils or more - the more, the better.

Why use it? Revising vocabulary; grammar

Who it's best for: Appropriate for all levels and ages

Simon Says

This is an excellent game for young learners. Whether waking them up on a Monday morning or sending them home on a Friday afternoon, this one is bound to get them excited and wanting more. The only danger with this game is that pupils never want to stop playing it.

Why use it? Listening comprehension; Vocabulary; Warming up/winding down class

Who it's best for: Young learners

Word Jumble Race

This is a great game to encourage team work and bring a sense of competition to the classroom. No matter how old we are, we all love a good competition and this game works wonders with all age groups. It is perfect for practicing tenses, word order, reading & writing skills and grammar.

Why use it? Grammar; Word Order; Spelling; Writing Skills

Who it's best for: Adaptable to all levels/ages

These games keep pupils engaged and happy as they learn. Therefore, these games should be implemented in the classroom. Following these kinds of games, there are some benefits of interactive games in the classroom.

- Physical development and motor skills.
- Memory retention and mental development.
- Social skills.
- Relationships and friendships.

Teaching and learning a foreign language using modern technology is one of the most effective ways.

Bennett et al emphasized that the use of computer technology improves teacher education and learners' learning in the classroom. The use of computer technology helps teachers meet the educational needs of learners[3.26-30].

Pourhosein Gilakjani emphasized that the use of technology can create a learner-centered learning environment rather than a teacher who in turn creates positive changes. They assert that with computer technology, the English language class becomes an active place full of meaningful assignments where learners are responsible for their own learning[2].

According to Susikaran, fundamental changes have occurred in the classes along with teaching methods because the method of teaching chalk and speech is not sufficient to teach English effectively.[5.13].

In this process of implementing modern technologies in the classroom, there are some advantages of them for pupils. They are as follows:

1. When using computers, pupils can watch and listen to videos, demonstrations, dialogues, movies or cartoons in a foreign language;

- It is possible to listen and watch radio broadcasts in foreign languages and TV programs;

- use of tape recorders and cassettes, which are more traditional methods;

- CD players are available.

The use of these tools will make the process of learning a foreign language more interesting and effective for pupils.

Conclusion. In conclusion, from the foregoing, it follows that the use of modern technologies and interactive games in teaching English make it possible to make pupils active participants in the pedagogical process, to form and develop pupils' cognitive activity. The use of interactive games and modern technologies contribute to the formation of a creative, active personality capable of changing in a changing world. In the course of preparing a lesson based on interactive forms of learning, the teacher is faced with the task of choosing the most effective form of learning for studying a particular topic, it opens up the possibility of combining several teaching methods to solve a problem, which contributes to a better understanding of the material by pupils. These can be implemented in a new way, along with modern technologies and interactive games.

References:

1. Artamonova L.N. Igry na uroke Anliyskogo zyzyka i vo neklassnoy raboty. // English Language, No. 4, 2008 - p. 363. Petrova L.V. Igrovyte tehnologii na urokax angliyskogo zyzyka// Angliyskiy yazyk, №11, 2008 - p.5

2. Bruce,B, Levin, J. “Roles for new technologies in language arts: inquiry, communication, construction, and expression”, In Jenson, J, Flood, J., Lapp, D., Squire, J.Eds. The handbook for research on teaching the language arts. NY: Macmillan. 2001

3. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London., 2001: – 64-pages.

4. Lewis, G. (1999). Games for Children. . Oxford: Oxford University Press.

5. Tyson, A. (2000). How to Choose Games. The internet TESL Journal, Vol. VII, No.5., 13.

БЕВОСИТА СОЛИҚЛАРНИ ҲИСОБЛАШ ВА УНДИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Янгибоев Ҳ.А.

*Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ
қўмитаси ҳузуридаги Фискал институт*

Аннотация: Ушбу мақолада бевосита солиқларни ҳисоблаш ва ундиришни такомиллаштириш орқали солиққа тортиш механизми самарадорлигини оширишга эътибор қаратилган. Иқтисодий субъектларнинг самарали ва тежамкор фаолиятини рағбатлантириш, юридик ва жисмоний шахсларнинг даромад ва фойдани кўпайтиришдан манфаатдорлигини ошириш, бюджетни солиқ тушумлари билан тўлдиришга ундовчи мослашувчан механизмни яратиш баён этилган. Бевосита солиқларни ҳисоблаш методикасининг ишлаб чиқиши, солиқлар ва солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш бўйича тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: бевосита солиқлар, билвосита солиқлар, ҳисоблаш, ундириш, солиқ тизими, механизм, такомиллаштириш, фойда солиғи, жисмоний шахслардан олинadиган даромад солиғи, айланмадан олинadиган солиқ.

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется повышению эффективности механизма налогообложения за счет совершенствования исчисления и сбора прямых налогов. Констатируется стимулирование эффективной и рентабельной деятельности хозяйствующих субъектов, повышение заинтересованности юридических и физических лиц в увеличении доходов и прибыли, создание гибкого механизма, стимулирующего наполнение бюджета налоговыми поступлениями. Даны рекомендации по развитию методики исчисления прямых налогов, совершенствованию механизма налогов и налогообложения.

Ключевые слова: прямые налоги, косвенные налоги, исчисление, взимание, система налогообложения, механизм, совершенствование, налог на прибыль, налог на доходы физических лиц, налог с оборота.

Annotation: This article focuses on improving the efficiency of the taxation mechanism by improving the calculation and collection of direct taxes. Stimulation of efficient and cost-effective activity of economic entities, increase of interest of legal entities and individuals in increasing income and profit, creation of a flexible mechanism encouraging to fill the budget with tax revenues is stated. Recommendations were given on the development of the method of calculating direct taxes, the improvement of the mechanism of taxes and taxation.

Keywords: direct taxes, indirect taxes, calculation, collection, tax system, mechanism, improvement, profit tax, personal income tax, turnover tax.

1. Кириш.

Жаҳон мамлакатлари амалиётида иқтисодий ривожланиш босқичларига боғлиқ ҳолда бевосита ва билвосита солиқлардан фойдаланиб келинмоқда. Аксарият ривожланган мамлакатлар солиқ маъмурчилигида бевосита солиқларни ҳисоблаш ва ундириш механизмини такомиллаштириб боришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. «Европа Иттифоқига кирувчи иқтисодий ривожланган мамлакатлар давлат бюджети, асосан, бевосита солиқлар ҳисобига тўлдирилади». [2021] Жаҳон амалиётида солиққа тортишда бевосита солиқлар улушининг юқорилиги уларни ҳисоблаш ва ундириш механизмини янада такомиллаштириб боришни тақозо этмоқда.

Ўзбекистонда бевосита солиқларни ҳисоблаш ва ундиришни такомиллаштириш орқали солиққа тортиш механизми самарадорлигини оширишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Иқтисодий субъектларнинг самарали ва тежамкор фаолиятини рағбатлантириш, жисмоний ва юридик шахсларнинг даромад ва фойдани кўпайтиришдан манфаатдорлигини ошириш, бюджетни солиқ тушумлари билан тўлдиришга ундовчи мослашувчан механизмни яратишга ҳаракат қилинмоқда. Ушбу саъй-ҳаракатлар орқали бевосита солиқларни ҳисоблаш методикасининг ишлаб чиқилиши, солиқлар ва солиққа тортиш механизмининг такомиллашуви, халқаро стандартлар амалиётга жорий этилиши муносабати билан хўжалик юритувчи субъектлар молиявий ва солиқ ҳисоботларининг мувофиқлашуви каби жараёнларни самарали ташкил этиш муҳим вазифалардан ҳисобланади.

2. Адабиётлар шарҳи.

Солиқларни гуруҳларга ажратиш, уларнинг моҳиятини ёритиш энг аввало, Европа мамлакатларида шаклланган. Шу сабабли айрим адабиёт ва тадқиқотларда солиқларнинг тарихий ривожланиш жараёнига ҳамда рус тилидаги талқинига мослаб таржима қилинишига қараб бевосита солиқларни - тўғри солиқлар ва билвосита солиқларни - эгри солиқлар деб ифодалаш учраб туради. Мантиқан қаралганда, солиқларни иқтисодий моҳиятига кўра гуруҳлаганда ҳар иккала тушунча ҳам мазмун-моҳиятига, ҳам қўлланилишига кўра бир хил маънони англатгани боис, солиқларни гуруҳлаганда уларни «тўғри» ёки «бевосита» деб номлаш унчалик аҳамиятли эмас. Чунки тўғри солиқлар деганда ҳам, бевосита солиқлар деганда ҳам айтиш билан бир гуруҳ солиқлар тушунилади.

Мамлакатда солиқларнинг бевосита ва билвосита солиқларга бўлиниши солиққа тортиш объекти, солиқ тўловчилар билан мамлакатнинг ўзаро муносабатларига боғлиқ бўлади деб ҳисоблаймиз.

Тўғридан-тўғри фойдага ва мол-мулкка қаратилган солиқлар - бевосита солиқлардир.

Бевосита солиқларнинг ставкалари оиширилса, ривожланиш имкониятлари камая бориб, иқтисодий ривожланишни сусайтиради. Демак бу гуруҳ солиқларнинг ставкалари тўғридан – тўғри бозор иқтисодиёти билан чамбарчас боғлангандир.

Умуман олганда бевосита ва билвосита солиқлар ягона солиқ тизимини ташкил этиб, бир-бири билан ўзаро боғлангандир. Умумий солиқ суммаси ўзгармаган ҳолда бирининг ставкасини камайтириш иккинчисининг ставкасини оширишни талаб этади.

Ўрта асрлардан эътиборан ҳозирги вақтга қадар ҳам солиқларни гуруҳлашга доир энг йирик қарашлардан бири – уларни иқтисодий моҳиятига кўра тўғри (бевосита) ва эгри (билвосита) солиқларга ажратиб ўрганилади.

Солиқларни «бевосита ва билвосита солиқлар тарзида таснифлашга дунёда биринчи марта англиялик файласуф Д.Локк (1632-1704) томонидан 1692 йилда асос солинган.

У барча солиқлар, шу жумладан истеъмол солиқлари охир оқибат ер эгасининг зиммасига тушади» [1824] деган хулосани берди. Локкнинг таъкидлашича, савдогар ва барча воситачилар (даромадини кўшиб) маҳсулотни кўлдан кўлга ўтказиб солиқларни охирги истеъмолчидан ундирадилар. Истеъмолчи ишчи, бундай катта солиқ юкини кўтаролмайди, шунинг учун солиқ тўловларни камайтиришни талаб қилади.

Агар солиқ тўловлари шу ҳолатда қолдирса, ишчилар ўзини-ўзи боқа олмай қолади ва унинг таъминоти кейинчалик барибир ер эгасига тушади. Бу эса ўз навбатида ер эгасининг кўчмас мулкига солиқ солиш даражасининг ошишига сабаб бўлади, натижада ер эгаси зарар билан ишламаслиги учун ерни ташлаб кетишга мажбур бўлади.

Агар йил охиригача ернинг эгалари бўлмаса солиқни ким тўлайди? Мамлакатда ер эгасидан ташқари савдогар ва воситачилардан солиқ ундириш имкони бўлмаса, унда ер эгасига соф даромаддан келиб чиқиб, ер солиғи тўлаш тўғрисида қарор қабул қилиш ҳуқуқини бериш керак ёки ернинг ижара тўловини қисқартириш йўли орқали солиқ юкини кўтариш керак [1824]

– деб ҳисоблаган.

Джон Локк «тўғридан тўғри ундириладиган солиқни – directly охирги (истеъмолчи)га тушадиган солиқларни билвосита солиқлар экан деган хулосага

келган. Натижада солиқлар бевосита солиқлар – direct taxes ва билвосита солиқларга бўлинган». [1919]

Шундай қилиб Д. Локк томонидан таклиф қилинган солиқларнинг иқтисодий таснифи дастлабки тартибга солиш мезонига асосланган эди.

А.Смитнинг фикрича «Билвосита солиқлар харажатлар таркибига киришини, тадбиркорлик фойдаси ҳамда иш ҳақи солиғи бевосита солиқлар эканлигини асослашда биргаликда бозор шароитининг монополлашуви натижасида товар баҳосининг бир қисми гарчи у тадбиркор (савдогар)нинг фойдаси бўлсада нархнинг монопол даражада ўрнатилиши ҳисобига солиқ оғирлиги сифатида сотиб олувчининг зиммасига, яъни билвосита солиқ сифатида тушишини изоҳлайди» [2007] - деб таърифлаган.

Немис файласуф Ф.Якобининг (1743-1819) фикрича «тўғри солиқ бу тўғридан-тўғри тўланиши керак бўлган шахслардан олинадиган солиқлар, билвосита солиқлар эса бу солиқ тўловини бошқалар тўлайдиган солиқдир» [1917] - деб таърифлаган.

Рус иқтисодчиси И.Гашенконинг қайд этишича, солиқларнинг иқтисодий таркиби давлатнинг ривожланиш даражасига, унинг молиявий-иқтисодий ҳолатига, ижтимоий муносабатлар шаклларига таъсир қилади. Давлат бюджетига ундирилган солиқ турларининг таркиби, эволюцияси давлатнинг ривожланиш даражасини баҳолаш имконини беради. Агар солиқ тизимида билвосита солиқлар устунлик қилса, бу давлат иқтисодий жиҳатдан ривожланмаганлигидан далолат беради. «Агар солиқ тизимида тўғри солиқлар устун бўлса (биринчи навбатда, фуқароларнинг даромад солиғи), бу ҳолат давлатнинг молиявий ва иқтисодий барқарорлигини ифодаловчи энг муҳим белги бўлиб хизмат қилади» [2010] - деб таърифлаган.

И.А.Майбуров ва А.М. Соколовскаяларнинг фикрича «солиқлар қайта тиклаш даражасига кўра бевосита ва билвосита солиқларга бўлинади. Бевосита солиқлар - бу жуда кам қайта тикланадиган солиқлар бўлиб, улар бевосита солиқ тўловчининг даромади ёки мулкидан олинади». [2020]

Рус иқтисодчиси В.Г. Пансков ҳам «солиқларни бевосита ва билвосита солиқларга бўлинишини кўрсатиб ўтган». [2021]

Э.Гадоев, Н.Қўзиева, Н.Ашурова, Ж.Ўрмоновлар «солиқларни бевосита ва билвосита солиқларга бўлиниши бўйича қуйидагиларни эътироф этишган, солиқлар бевосита ва билвосита солиқларга бўлинади. Бевосита солиқлар тўғридан тўғри солиқ тўловчининг ўзи тўлайди, яъни солиқни ҳуқуқий тўловчиси ҳам, ҳақиқий тўловчиси ҳам битта шахс бўлади». [2013]

Б.Кодировнинг фикрича «мамлакат иқтисодиётининг юксалиш истиқболлари корхона ва ташкилотларнинг фаолиятига боғлиқ экан, бу тадбиркорлик субъектларининг фаолиятига самарали таъсир этишининг

иқтисодий воситаси сифатида бевосита ва билвосита солиққа тортишда намоён бўлади. Ўзбекистон Республикасида амалда ислохотларнинг янги босқичида эркин ва шаффоф бозор иқтисодиётини шакллантириш устувор вазифа сифатида белгиланган бўлиб айтиш пайтда, мамлакатнинг иқтисодий тараққиётини таъминлашда солиқ воситасининг, шу жумладан бевосита ва билвосита солиққа тортишнинг аҳамияти муҳимдир». [2020]

Иқтисодчилар К.Хотамов ва З.Қурбоновларнинг фикрича, «Бугунги кунда Ўзбекистонда ва халқаро амалиётда ҳам солиқлар иқтисодий моҳиятига ва характерига қараб асосан икки гуруҳга, яъни бевосита ва билвосита солиқларга бўлиб ўрганилмоқда». [2015]

Ўзбекистон Республикасининг давлат бюджети даромадлар манбаини шакллантиришда бевосита ва билвосита солиқлар ўртасидаги мақбул нисбатни таъминлашни белгилловчи меъёрларни аниқлаш муаммоси асосий муаммолардан бири бўлиб қолмоқда.

Бизнинг фикрича бевосита солиқлар – юридик ёки жисмоний шахсларнинг фойдаси ёки даромадига, мол-мулкига, табиий бойликлардан қазиб олганига, фойдаланганига, ишлаб чиқарганига, иш берувчининг ходимлар меҳнатига ҳақ тўлашга доир харажатларига белгиланиб, солиқ тўловчининг даромадидан ёки фойдасидан бевосита давлат бюджетига ёки давлат мақсадли жамғармасига тўланадиган мажбурий беғараз тўловидир.

3. Тадқиқот методологияси.

Тадқиқотимиз методологияси бўлиб, бевосита солиқларнинг ҳисоблаш ва ундириш механизмини такомиллаштириш бўйича иқтисодий муносабатлар ҳисобланади. Бевосита солиқларнинг ҳисоблаш ва ундириш бўйича назарий масалалар умумлаштирилди. Тадқиқот жараёнида амалий материалларни таққослаш ва гуруҳлаш каби усуллардан фойдаланилиб, хулоса ва таклифлар ишлаб чиқилди.

4. Таҳлил ва натижалар.

Бевосита солиқ тўловчилар – зиммасига белгиланган солиқларни тўлаш мажбурияти юклатилган юридик ҳамда жисмоний шахслар ҳисобланади.


Юридик ва жисмоний шахслар ҳамда яқка тартибдаги тадбиркорлар томонидан тўланадиган бевосита солиқларнинг ҳисобланиши ва тўланиши тартибини ўрганиб чиқсак.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикасида бевосита солиқларнинг турига қуйидаги солиқлар киради:

1. «Фойда солиғи;
2. Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи;
3. Айланмадан олинадиган солиқлар;

Билвосита солиқлар мамлакатимиз бюджети учун улкан даромад манбаи бўлиб, узоқ йиллардан буён унинг ҳиссаси давлат бюджетининг даромадлари қисмида катта улушга эга бўлиб келган, 2021 йилда улуши – жами 56 290,5 млрд.сўм ташкил этган бўлса, бевосита солиқларнинг улуши – 58 930,4 млрд. сўм ташкил этган.

2012-2021 йилларда жами мамлакатимиз бюджети даромадларининг ичида солиқ тушумларининг энг юқориси – 2017 йилда 52,6 фоизи билвосита солиқлар билан боғлиқ бўлган бўлса, 2021 йилга келиб, бевосита солиқларнинг улуши – 35,8 фоизни ташкил этган. (1-расм).



1-расм. 2012-2021 йилларда бюджетнинг даромадлар манбаида солиқлар улуши, фоизда¹.

Охири уч йилда яъни 2019 йилдан бошлаб, билвосита солиқлар улуши – 41,4 фоизга тушган бўлса, бевосита солиқлар 28,2 фоизга кўтарилган, 2020 йилдан бошлаб, билвосита солиқлар улуши – 34,9 фоизга тушган бўлса, бевосита солиқлар 34,0 фоизга кўтарилган. 2021 йилдан бошлаб, билвосита солиқлар улуши – 34,2 фоизга тушган бўлса, бевосита солиқлар 35,8 фоизга кўтарилган, 2021 йилдан бошлаб бевосита солиқларнинг улуши давлат бюджетининг даромадлари қисмида энг катта улушга эга бўлиб келаётганлигини кўриш мумкин.

¹ Расм Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ва Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси маълумотлари асосида тузилган.

2022 йил январь-декабрь ойларида Ўзбекистон Республикаси
бюджетга солиқ турлари бўйича тушуми таҳлили²

01.01.2023 йил ҳолатига

млрд.сўм

№	Солиқ тури номи	2022 йил январь-декабрь ойлари тушум	Ўтган йилга нисбатан		
			2021 йил январь-декабрь ойи тушум	Фарқ (+;-)	ўсиш, %
I.	Республика бўйича жами	148 388,2	127 970	20 418	116%
	шу жумладан:				
II.	Солиқлар бўйича	134 249,1	120 318	13 931	112%
1	Қўшилган қиймат солиғи	32 812,1	25 572	7 240	128%
2	Акциз солиғи	13 077,2	12 779	298	102%
3	Айланмадан олинадиган солиқ	2 512,7	1 649	863	152%
4	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	24 284,5	18 918	5 367	128%
5	Юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи	37 649,9	38 363	-713	98%
6	Ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ	13 887,4	15 812	-1 925	88%
7	Мол-мулк солиғи	4 015,4	2 457	1 558	163%
8	Ер солиғи	5 305,9	4 083	1 223	130%
9	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	704,1	684	20	103%
III.	Солиқсиз тушумлар бўйича	14 139,1	7 653	6 486	185%
1	Давлат божи	2 717,9	2 180	537	125%
2	Жарималар	1 518,4	1 153	366	132%
3	Йиғимлар	1 534,1	2 069	-535	74%
4	Бошқа тушумлар	8 368,7	2 250	6 118	372%

² Жадвал Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси маълумотлари асосида тузилган.

2022 йил январь-декабрь ойларида Ўзбекистон Республикаси бюджетга солиқ турлари бўйича тушуми таҳлили 1-жадвалда келтирилган.

2023 йил 1 январь ҳолатига давлат бюджетига барча солиқ турлари бўйича 2022 йилда 148 388,2 млрд.сўм даромад келиб тушган бўлса 2021 йилда бу кўрсаткич 127 970,0 млрд.сўмни ташкил этган бўлиб 2022 йилда 116 фоизга ошганлигини кўриш мумкин.

2023 йил 1 январь ҳолатига давлат бюджетига юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи бўйича 2022 йилда 37 649,9 млрд.сўм даромад келиб тушган бўлса 2021 йилда бу кўрсаткич 38 363,0 млрд.сўмни ташкил этган бўлиб 2022 йилда 98 фоизга пасайган, 2023 йил 1 январь ҳолатига давлат бюджетига жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи бўйича 2022 йилда 24 284,5 млрд.сўм даромад келиб тушган бўлса 2021 йилда бу кўрсаткич 18 918,0 млрд.сўмни ташкил этган бўлиб 2022 йилда 128 фоизга ошган, 2023 йил 1 январь ҳолатига давлат бюджетига айланмадан олинадиган солиқ бўйича 2022 йилда 2 512,7 млрд.сўм даромад келиб тушган бўлса 2021 йилда бу кўрсаткич 1 649,0 млрд.сўмни ташкил этган бўлиб 2022 йилга нисбатан 152 фоизга ошган, умуман олганда бевосита солиқларнинг ҳисоблаш ва ундириш механизмини такомиллаштишга давлат томонида катта эътибор берилиб келмоқда.

2-жадвалда эса Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 30 декабрдаги ЎРҚ-813-сон Қонунига асосан 2023 йил учун Ўзбекистон Республикасининг республика бюджети даромадлари прогнози ўз аксини топган.

2-жадвал

2023 йил учун Ўзбекистон Республикасининг республика бюджети даромадлари прогнози³.

млрд сўм.

Т/р	Кўрсаткичлар	Сумма
	Ўзбекистон Республикасининг республика бюджети даромадлари	183 442,8
1.	Бевосита солиқлар	47 127,1
1.1	Фойда солиғи	37 140,4
	шундан, «Навоий кон-металлургия комбинати» ва «Олмалиқ кон-металлургия комбинати» акциядорлик жамиятлари бўйича	16 518,1
1.2	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	9 986,7

³Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 30 декабрдаги ЎРҚ-813-сон Қонунига 4-ИЛОВА.

2.	Билвосита солиқлар	84 515,5
2.1	Қўшилган қиймат солиғи	63 775,4
2.2	Акциз солиғи	13 988,1
2.3	Божхона божи	6 752,0
3.	Ресурс тўловлари	14 780,1
3.1	Ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ	14 780,1
4.	Дивидендлар (дивидендлар кўринишидаги даромадлардан олинadиган фойда солиғини ҳисобга олмаган ҳолда)	29 532,2
	шундан, «Навоий кон-металлургия комбинати» ва «Олмалиқ кон-металлургия комбинати» акциядорлик жамиятлари бўйича	25 532,2
5.	Бошқа даромадлар ва солиқ бўлмаган бошқа тушумлар	7 448,0

Бунга асосан 2023 йилда Ўзбекистон Республикасининг республика бюджети даромадлари 183 442,8 млрд сўм этиб белгиланган. Бевосита солиқлар 47 127,1 млрд сўм, билвосита солиқлар 84 515,5 млрд сўм ресурс тўловлари 14 780,1 млрд сўм, дивидендлар (дивидендлар кўринишидаги даромадлардан олинadиган фойда солиғини ҳисобга олмаган ҳолда) 29 532,2 млрд сўм ва бошқа даромадлар ва солиқ бўлмаган бошқа тушумлар эса 7 448,0 млрд сўм бўлишлиги прогноз қилинган.

Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 30 декабрдаги “Солиқ ва бюджет сиёсатининг 2023 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги ЎРҚ-812-сони қонунига асосан қуйидаги тоифадаги солиқ тўловчилар учун фойда солиғи ставкасини 50 фоизга пасайтириш ҳуқуқи берилди.

А) биринчи марта фойда солиғини тўлашга ўтган айланмадан олинadиган солиқ тўловчиларга - солиқ тўловчи солиқ тўлашга ўтган йилдан кейинги битта солиқ даври давомида жами даромади 10 миллиард сўмдан ошмаган бўлса солиқ ставкасини 50 фоизга пасайтиришга ҳақли бўлди;

Мисол: **2022 йилнинг 1 октябрида** фойда солиғини тўлашга ўтган солиқ тўловчи, 2023 йилда унинг жами даромади 10 млрд сўмдан ошмаган тақдирда, солиқ тўловчи 2023 йил (1 йил) давомида фойда солиғини 7,5 фоиз ставка бўйича тўлашга ҳақли бўлади.

Б) жорий солиқ даври давомида жами даромади биринчи марта 10 миллиард сўмдан ошган солиқ тўловчиларга - башарти пасайтирилган солиқ

ставкаси қўлланадиган солиқ даврларида жами даромади 100 миллиард сўмдан ошмаган бўлса, жорий солиқ даври ва кейинги солиқ даври давомида.

Бунда мазкур солиқ тўловчилар солиқ базасини соддалаштирилган тартибда жами даромаднинг 25 фоизи миқдорида белгилашга ҳақли.

Мисол: **2023 йилнинг 9 ойи якунларига** кўра солиқ тўловчининг жами даромади биринчи марта 10 млрд сўмдан ошди. Солиқ тўловчининг 2023 ёки 2024 йилдаги жами даромади 100 млрд сўмдан ошмаса, у 2023 йил учун 7,5% миқдоридаги ставкани қўллаган ҳолда фойда солиғини тўлайди ва 2024 йилда (2-йил) пасайтирилган ставкани (7,5%) қўллайди.

Пасайтирилган солиқ ставкаси ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқни ва акциз солиғини тўловчиларга нисбатан, шунингдек солиқ тўловчи тугатилган ва (ёки) пасайтирилган солиқ ставкасини қўллаш учун солиқ тўловчининг товарларни (хизматларни) реализация қилишдан олган даромадларини икки ва ундан ортиқ тадбиркорлик субъектлари ўртасида тақсимлаш (бўлиш) далиллари аниқланган тақдирда қўлланилмайди.

Фаолиятни доимий муассаса орқали амалга оширувчи норезидентлар дивиденд кўринишидаги даромадлар бўйича Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномасида назарда тутилган пасайтирилган солиқ ставкасини қўллашга ҳақли эканини назарда тутувчи аниқлаштириш киритилди. Дивидендлар кўринишидаги даромадлар бўйича солиқ солиш масалаларига доир Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномасида бир нечта пасайтирилган солиқ ставкаси назарда тутилган бўлса, уларнинг энг паст бўлгани қўлланилади.

2022 йилда фаолиятни доимий муассаса орқали амалга оширувчи норезидент тасарруфида солиқ тўланганидан кейин қоладиган соф фойда дивидендларга тенглаштирилган ва унга 10 фоиз миқдоридаги солиқ ставкаси бўйича солиқ солиниши лозим бўлган.

2023 йил 1-январдан бошлаб норезидентнинг монтаж қилиш ва (ёки) ишга тушириш-созлаш хизматлари ва бошқа шунга ўхшаш хизматларни кўрсатишни назарда тутувчи асбоб-ускуналарни сотиб олиш (сотиш) учун ташқи савдо контракти доирасида, кўрсатиладиган хизматлар қиймати алоҳида кўрсатилмаса, у ҳолда норезидентнинг солиқ солинадиган даромади бундай хизматларнинг бозор қийматидан келиб чиқиб аниқланади (илгари-асбоб-ускуналар қийматининг 20 фоизи бўлган).

Солиқ бўйича аванс тўловлари суммаси тўғрисидаги маълумотномани солиқ органларига тақдим этиш муддатига ўзгартириш киритилди. Хусусан, 2023 йилнинг 1 январидан бошлаб солиқ тўловчи ушбу маълумотномани жорий чорақда олиниши кутилаётган фойда суммасидан келиб чиқиб кейинги чорақдаги биринчи ойнинг 15-санасигача (илгари 10-санасигача) тақдим этишга ҳақли.

Жисмоний шахслар ўз даромадларини ипотека кредитларини сўндиришга йўналтирганда, бир вақтнинг ўзида турар жой қиймати (илгари 300 млн сўм бўлган) бўйича талабни бекор қилган ҳолда, жисмоний шахслар даромад солиғи бўйича солиқ солинмайдиган даромад суммаси 15 млн сўмдан меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдорининг 80 бараваригача (ёки 73,6 млн сўм) оширилди.

Қонунга асосан айланмадан олинмайдиган солиқ асосий ставкалари солиқ тўловчиларнинг барча тоифалари учун 4 фоиз миқдоридаги ягона ставкаси белгилаган. Дорихона фаолияти учун, бориш қийин бўлган ва тоғли ҳудудларда жойлашган солиқ тўловчилар учун пасайтирилган солиқ ставкалари 1 фоиз миқдорида, бошқа аҳоли пунктларида жойлашган корхоналар учун - 2 фоиз миқдорида (шу жумладан, электрон тижорат) ва аҳолиси сони юз минг нафар ва ундан кўп кишидан иборат шаҳарларда – 3 фоиз миқдорида сақлаб қолинди.

2023 йилдан бошлаб айланмадан олинмайдиган солиқ тўловчилар ихтиёрий асосда қатъий белгиланган миқдорда солиқ тўлашни танлашга ҳақли. Бунда жами даромад суммаси 500 миллион сўмдан ошмаганда йилига 20 миллион сўм қатъий белгиланган миқдордаги солиқни, жами даромад суммаси 500 миллион сўмдан ошганда эса йилига 30 миллион сўм тўлашни танлаш ҳуқуқи берилди. Солиқ даври мобайнида қатъий белгиланган суммада солиқ тўлашга ўтишда, солиқ миқдори қатъий белгиланган суммани 12 га бўлиш ва олинган натижани жорий солиқ даври охиригача қолган ойлар сонига кўпайтириш йўли билан аниқланади. Солиқ даври мобайнида қатъий белгиланган суммада солиқ тўловчининг жами даромади 500 миллион сўмдан ошган тақдирда, қатъий белгиланган суммадаги солиқ суммаси у ошган ойдан бошлаб жорий солиқ даври охиригача, 500 миллион сўмдан ортиқ жами даромадга эга солиқ тўловчилар учун белгиланган солиқ ставкасидан келиб чиққан ҳолда қайта ҳисобланади. Солиқ даври мобайнида қатъий белгиланган суммада солиқ тўлашдан ҚҚС ва фойда солиғини тўлашга ўтишда қатъий белгиланган суммадаги солиқ ушбу солиқларга ўтилган охириги календарь ойни ҳисобга олган ҳолда тўланиши лозим.

Айланмадан олинмайдиган солиқ тўловчиларга қатъий белгиланган миқдорда тўланадиган дивидендларга фойда солиғи ва жисмоний шахслардан олинмайдиган даромад солиғи солинмайди. Бунда ихтиёрий ёки мажбурий тартибда ҚҚС тўлашга ўтишда бундай солиқ тўловчиларга ҚҚС билан харид қилинган товарлар қолдиқлари бўйича ҚҚСни ҳисобга олиш ҳуқуқи берилмайди.

5. Хулоса ва таклифлар:

Бевосита солиқлар ставкаси нафақат тадбиркорларни фойда олиш орқали уларни рағбатлантиришнинг зарурий даражасини таъминлаши, шу билан бирга мамлакат бюджети даромадлари ва инвестициялар оқими ўсишини ҳам таъминлаши лозим. Шунинг учун бунда тадбиркорлик фаолиятини ташкил

этишга солиқ тўловчилар қизиқишларини йўқотилиши олиб келиши мумкин бўлган тадбиркорлик субъектлари даромадларини маълум чегарасини бузмаслик талаб этилади.

Бевосита солиқларни бизнинг фикримизча, Бевосита солиқлар – юридик ёки жисмоний шахсларнинг фойдаси ёки даромадига, мол-мулкига, табиий бойликлардан казиб олганлига, фойдаланганлига, ишлаб чиқарганлига, иш берувчининг ходимлар меҳнатига ҳақ тўлашга доир харажатларига белгиланиб, солиқ тўловчининг даромадидан ёки фойдасидан бевосита давлат бюджетиг ёки давлат мақсадли жамғармасига тўланадиган мажбурий беғараз тўловидир.

Хориж тажрибасидан келиб чиқиб, юридик шахслардан олинадиган фойда солиғини корпорация солиғига ўзгартирилиши ва ушбу солиқ механизмида муайян ўзгаришларни амалга ошириш лозим ҳамда илғор хориж тажрибасини ижобий томонларини мамлакатимиз солиққа тортиш тизимида фойдаланиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Бевосита солиқларнинг ҳисоблаш ва ундириш методикасини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқдир.

Бевосита солиқларнинг ҳисоблаш ва ундириш механизмини рақамлаштириш асосида такомиллаштиришни таклиф этамиз.

Адабиётлар/Литература/Reference:

1. Тихонова А.В. К вопросу о выборе приоритетных подходов в налогообложении населения // *Налоги и налогообложение*. – 2021. – №4. – С.19-35. DOI: 10.7256/2454-065X.2021.4.35020 URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=35020
2. John Locke *Some Considerations of the Consequences of the Lowering of Interest and the Raising the Value of Money*. 1692. (Collected Works. 1824,) 88-93 бетлар
3. Кулишер И.М. *Очерки финансовой науки*. Вып.1. - Петрофад: Наука и Школа, 1919. - 121 бет.
4. Смит А. *Исследование о природе и причинах богатства народов*. - М: Эксмо, 2007. - 357 бет.
5. Озеров И.Х. *Основы финансовой науки*. - 5-е изд. Вып.1. Учение об обыкновенных доходах. -М.: тип. т-ва И.Д. Сытина, 1917. - 251-252 бетлар.
6. Гарашенко И.В. Развитие прямого налогообложения в налоговой системе России: теория и практика. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. – Ростов-на-Дону, 2010. 26-27бетлар.
7. Майбууров И.А. *Теория налогообложения*./ И.А.Майбууров, А.М. Соколовская. – М.: ЮНИТА-ДАНА, 2020.-591 с.
8. Пансков В.Г. *Налоги и налогообложение: теория и практика*. Учебник. Москва: Юрайт, 2021-393с.
9. *Юридик шахсларни солиққа тортиш*. Дарслик. / Э.Гадоев, Н.Кўзиева, Н.Ашурова, Ж.Ўрмонов. Т.: IQTISOD-MOLIYA. 2013.-616 б.
10. Кодиров Б. К. Жаҳон инқирози шароитида бевосита ва билвосита солиқлар асосида Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантириш йўллари. *Иқтисод ва молия / экономика и финансы* 2020, 3(135).
11. Хотамов К., Қурбонов З. *Солиқлар таҳлилини такомиллаштириш масалалари*. //«Biznes-Эксперт» илмий-амалий, иқтисодий ойлик журнали. : №8(92)-2015.

DIDACTIC BASES OF PROFESSIONALLY ORIENTED TEACHING FRENCH TO LEGAL STUDENTS

Usmanova Nodira Hrazhitdinovna

Senior Lecturer, Department of Translation Studies of Romano-Germanic Languages, Faculty of Translation, Uzbek State University of World Languages

Annotation: Consistent organization of educational activities for the implementation of the principles of professionally oriented teaching of the French language for legal students provides for the mastery of linguistic and regional studies, sociocultural, communicative and professional competencies. The purpose of the training is the student's ability to use the French language to solve actual professional problems. One of the main tasks of the discipline "French Language" is the systematization of knowledge based on didactic methods for the practical knowledge of the language as a means of social and professional communication.

Key words: professionally oriented education, French, law students, legal terminology, authentic materials, translation of legal documents, Internet technologies.

The socio-economic and political situation in Russian society makes new demands on the content of education in higher education. Innovative technologies of higher education today are focused on the formation of special knowledge, skills and experience, which, according to the new educational standard (FSES), constitutes a set of general cultural and professional competencies, the mastery of which characterizes the self-sufficiency of a future specialist in all fields of knowledge and, in particular, in the field of jurisprudence.

In this context, we have developed a set of didactic techniques in teaching a foreign language at the Faculty of Law, which includes new teaching methods along with traditional methods. The proposed model is based on the understanding that a student is an active participant in the socio-cultural educational space, and his activity is determined by the state of success of his activity. Professionally-oriented technologies for teaching law students of a new generation are aimed not only at qualitative changes in the system of legal education and mastery of professional and communicative competence by students, but also at parallel mastery of a foreign language, where the goal of training is the student's ability to use a foreign language to solve problems. actual professional tasks.

The general idea of these studies is as follows: in the light of the competence-based educational paradigm, teaching foreign languages is one of the fundamental tasks of general and higher professional education. An analysis of existing methods and scientific research, as well as a pedagogical understanding of the problem, indicates

the particular relevance of identifying the personality-developing potential of the discipline "Foreign Language", finding ways to create its updated model, and improve the quality of education. Together with other humanitarian disciplines, a foreign language forms the basis of general educational training of a specialist. It has a number of features and didactic advantages that allow: to develop students' logic, rationality and systematic thinking, to train the thinking apparatus.

The main goal of vocational training is the formation of the personality of a specialist who effectively carries out labor activities. In other words, it should ensure not only the mastery of a set of knowledge and skills, including communicative competence in the foreign language being studied, but also the formation of professionally significant personal qualities, which enhances and makes significant the social aspect of any professionally oriented education. A sufficient level of foreign language training for students of legal specialties greatly facilitates the possibility of using a foreign language as a tool for professional communication and a means of obtaining new specialized knowledge. As a consequence, knowledge of a foreign language can contribute to the effective integration of domestic legal experience in the international arena.

The French language course is an important component of the training program for future specialists in the field of jurisprudence. It immerses them in an intercultural context, forms and improves communicative and professional competencies, helps develop creative thinking, broadens their horizons, enhances the successful socialization of students. In this regard, the considered aspect of the problem of mastering the French language in given conditions is also very relevant.

The purpose of the discipline "French" is to develop students' ability to consciously select language means, taking into account the structural, lexical-grammatical and stylistic features of the language, the formation of the skills of a holistic vision of the text, the ability to assess the equivalence of the means used in terms of their compliance with the communicative goal and the semantic structure of texts. Comprehensive training of lawyers has as its main goal the formation of an active, creative personality, deeply knowing his subject, possessing erudition, culture. The training of future specialists involves the mastery of linguistic, linguistic, cultural, communicative, educational, cognitive and linguo-methodological competencies.

One of the main objectives of the course "French Language" is the further systematization of knowledge previously acquired in secondary educational institutions, as well as further work on the formation of dialogic and monologue speech skills based on authentic educational texts of a legal orientation, teaching practical knowledge of the language as a means of social and professional communication. The task set involves mastering by students all types of speech activity - speaking, reading, listening, writing in situations of official and informal communication. The conditions

for professionally oriented teaching of French for students of legal specialties is the ability of students to focus on the close relationship of both disciplines, to capture the meaning of new words and expressions, scientific terms, special concepts related to areas of professional activity, that is, to the formation of a professional thesaurus.

The conditions for professionally oriented teaching of French for students of legal specialties is the ability of students to focus on the close relationship of both disciplines, to capture the meaning of new words and expressions, scientific terms, special concepts related to areas of professional activity, that is, to the formation of a professional thesaurus.

When selecting and organizing textual material and assignments for it for students of legal specialties, we pursued both subject-substantive and cognitive goals. This leads to the acquisition of new knowledge by students, to the formation of new ways of activity, new mental and practical operations and techniques, that is, it raises students to a higher level of knowledge.

The specific language of each science is cognitive. We have developed a set of special texts and assignments for law students with the aim of developing a culture of professional speech in French among future specialists, designed to work with terminology, symbols, verbal-logical constructions, and various tests in French. Semantic analysis of texts of various styles within a given topic allows us to identify certain classification groups of specific concepts and terms. The factual base of this complex is the texts compiled on the basis of original sources, as well as materials from the global Internet: Le droit romain. Les institutions romaines. Les institutions à l'époque républicaine. La justice civile. La justice criminelle. Le pouvoir exécutif. Le pouvoir législatif. Le pouvoir judiciaire. L'ordre administratif. La cour de justice. Le complice. La peine. La prison. Les institutions européennes. Comment le parlement et le conseil adoptent conjointement les lois européennes.

Students are also invited, as an additional extracurricular task, to select materials for any of the listed topics that do not appear in these texts and, on their basis, draw up their own author's vision of the topic. At the same time, it is allowed to use any reference, educational, journalistic or fiction literature, Internet resource, etc. The success of completing assignments generally depends on the preparedness of the student, on cognitive-motivational, activity and personal factors in teaching French. For the formation of intercultural competence, it is also necessary to include students in various situations of foreign language communication, starting with elementary educational situations and ending with real communication with native speakers of the foreign language being studied.

During extracurricular time, students prepare a role-play or a situation on a professional topic, and then present it during the class. At the end of the presentation of the material, a discussion and exchange of impressions in French follows. The

experience of such work of students gives the opportunity to hear and analyze the student's speech not only to teachers, but also to students in the audience, expanding the possibilities of variability in the use of speech constructions and stylistic phrases.

The main task facing students is to create a plot and situations of effective interpersonal and intercultural interaction of characters, taking into account speech, including phonetic features, social stereotypes of speech behavior and perception, common in French-speaking linguistic culture. The proposed form of work provides an active independent activity of all members of the student group, aimed at obtaining a practical result, implements the principle of interdisciplinary integration in professionally oriented teaching of foreign languages . When preparing material for the development of situations, dialogues, business or role-playing games, round tables, case assignments, and other interactive teaching methods, the teacher is required to compile a list of legally relevant concepts for students that they will have to operate with. These concepts can be expressed in the most general form, or they can be associated with specific events or situations.

Due to their effectiveness, professionally oriented methods can also be used for distance learning of the French language course in the field of jurisprudence. The profile course in a popular science form introduces students to such a phenomenon as Francophonie, to the status of the French language in public life and world culture; orients trainees in the world of modern professions related to the use of the French language; synthesis of the French language with knowledge of a number of disciplines and specialties.

In conclusion, we note that the consistent organization of educational activities for the implementation of the principles of professionally oriented teaching of the French language provides for:

1) the integration of the discipline "French" into the general course of professional training of the direction "Jurisprudence", which implies the possession of the skills acquired in the course of studying special disciplines using a foreign language as a means of obtaining authentic professional information;

2) selection of material that forms linguistic cognitive competence and reflects the linguistic essence of the professional speech of a specialist - style-forming elements and formulas of the professional language of jurisprudence;

3) the use of interactive forms of learning in the preparation and conduct of practical classes in the French language, i.e. the use of communicative-situational attitudes, business and role-playing games, presentations, problem situations, case tasks, etc. as the main forms of organizing professional communication;

4) organization of work on the translation of special texts and legal documentation in compliance with a certain degree of equivalence of the translation to the original;

5) use in the educational process of communication Internet technologies and methods of distance learning in a foreign language.

List of used literature:

1. Penina L.S. Professionally oriented English language training for students of the Faculty of Law. [Electronic resource]. - Access mode: http://www.rusnauka.com/1_NIO_2011/Pedagogica/77217. Doc (date of access: 05/22/2016).

2. Sidakova N.V. Foreign language remotely: "pro" and "contra" // Vector of science TSU Series: Pedagogy, psychology. - 2015. - No. 3 (22). - WITH. 149-152.

3. Sidakova N.V. The quality of foreign language teaching - the most important system-forming factor of higher education // Bulletin of the Kostroma State University. A.N. ugly- va. - 2014. - No. 4. - S. 189-192.

4. Sidakova N.V. The main factors in the implementation of teaching a foreign language to students of physics in the framework of innovative education // Vector of science TSU Series: Pedagogy, psychology. - 2014. - No. 1 (16). - S. 196-199.

TURKIY TILLARDA SHAXSNING XARAKTER HAMDA TASHQI BELGI XUSUSIYATLARINI ZONIMLAR YORDAMIDA IFODALANISHI

Murtazayev Sherzod Dilshodovich

SamDCHTI, Xorijiy til va adabiyot 2 – bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.n.dots. Turdiyeva N.Y.

Annotatsiya

Ushbu maqolada shaxsning xarakter va xususiyat belgilari, ichki va tashqi dunyosining zoonimlar yordamida ifodalanishi mazmun, mohiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: zoonimlar, prafaza, frazeologik, tilning leksik fondi, Inson obrazi, Zoofrazeologizmlar, zookomponentli, funktsional-parametrik....

KIRISH

Frazeologik birliklar ifodalanishi va tuzilishiga ko'ra turli guruh va bo'limlarga ajratib o'rganiladi. Frazeologizmlar tarkibida turli komponentlar, xususan, somatik so'zlar, o'simliklar, gullar, tabiat hodisalari, hayvon nomlari va h.k. ishtirok etadi. Zookomponentli frazeologik birliklar nutqda faolligi jihatidan somatik frazeologizmlardan keyingi o'rinda keladi. Zookomponentli frazeologik birliklar inson va hayvonlarning uzoq ming yillik munosabatlari natijasida rivojlangan.

Bugungi kunda ham inson faoliyatining aksariyat sohalari, xususan, qishloq xo'jaligi, sanoat, sport, ilm va h.k. hayvonlar bilan bog'liqdir. Inson – hayvonot dunyosi munosabati tilga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lib, tilning leksik fondidagi zoonim komponentli iboralar guruhi shakllantirgan. Zoonim komponentli iboralar antroposentrik xususiyat bilan xarakterlanadi.

METODOLOGIYA

Zoofrazeologizmlar tarkibida it, mushuk, qo'y, ot, ho'kiz, sigir, echki, tuya, tovuq kabi uy hayvonlari; tulki, quyon, yo'lbars, ayiq, bo'ri, sher, to'ng'iz singari yovvoyi hayvonlar; ilon, toshbaqa kabi sudralib yuruvchilar; sichqon, olmaxon singari kemiruvchilar; qushlar; suvda yashovchilar; hamda hasharot nomlarini bildiruvchi zoonimlar ishtirok etadi. Zookomponentli frazeologik birliklar ma'nosi bilan tarkibidagi so'zlarining ma'nolari orasidagi munosabatga ko'ra frazeologik chatishmalar va frazeologik butunlikka ajratiladi. Frazeologik chatishmalarning umumiy ma'nosi ularni tashkil qilgan komponent so'zlar ma'nosiga umuman mos kelmaydi. Frazeologik butunlikning ma'nosi tarkibidagi so'zlarining ma'nosi asosida izohlanadi.

Inson obrazini ifoda etuvchi frazeologik birliklarni tanlash insonning xarakteri, ularning tadqiqotiga ko'ra, zamonaviy tilshunoslikda antroposentrik paradigma rivojlanishining natijasidir. Insonni tavsiflovchi frazeologik birliklar uning turli xil xususiyatlarini, fazilatlarini chaqiradi, ular katta faollikka ega. Turkiy tillardagi “zookomponentli frazeologik birliklar jismoniy sifat, tashqi ko'rinish, xarakter belgilari, intellekt, inson faoliyati kabilarni aks ettiradi”. Ot, tuya, qo'y, mushuk, it, sigir kabi hayvonlarning xonakilashtirilishi turkiy xalqlar leksikasida ijobiy ma'no

belgilarini o‘zida aks ettiruvchi frazeologik birliklarning ifoda va mazmun jihatidan boyishida yanada muhim bir omil bo‘ldi.

Turk va o‘zbek tillaridagi zoonim komponentli iboralarning semantik guruhlarini Turk va o‘zbek tillaridagi zoonim komponentli iboralarni semantik jihatdan uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga shakl va mazmun jihatidan to‘liq muqobil iboralar kiradi. Mazkur guruhdagi frazeologik birliklar turk va o‘zbek lingvomadaniyatida bir xil vaziyatlarda qo‘llaniladi. Bunday iboralarda milliy kolorit farqlari kuzatilmagani uchun ham ularni tarjima qilish qiyinchilik tug‘dirmaydi. Zero, ularning aksariyati ayni manbadan o‘sib chiqqan bo‘ladi. Bu o‘rinda S.Vlaxov va S.Florinlar ta’kidlaganidek, ikki qiyoslanilayotgan tildagi frazeologizmlarda to‘liq ekvivalentlik namoyon bo‘ladi¹

Turkcha iboralar o‘zbekcha birliklar bilan taqqoslaganda “deve yapmak”- birovning pulini, molini o‘zlashtirmoq, ya’ni “tuya ko‘rdinmi- yo‘q”; “deveyi havutuyla yutmak” tuyani yutib, dumini ko‘rsatmoq har qanday katta (ko‘p) narsani ham o‘zlashtirib, undan nishon, iz qoldirmaslik; “kuş uykusu”- qush uyquusi biz zumlik uyqu, “tavşan yürekli” -quyon yurak o‘ta qo‘rqoq, jur’atsiz, “sağmal inek”- sog‘in sigir, ma’lum miqdordagi mablag‘ bilan muntazam ta’minlab turadigan manba, “arının yuvasına (inine) çomak sokmak”- arining inini to‘zitmoq, xavfli odamni gijgijlab o‘ziga hujum qilishiga yo‘l qo‘ymoq, “sıçan deliği bin altın”- sichqonning ini ming tanga bo‘ldi, qochib qutulgan joy topolmay qolmoq kabi o‘xshash va aynan mos keluvchi iboralar ko‘pdir. Bu esa o‘zbek va turk tillarining o‘zaro yaqin tillardan kelib chiqqanligi asosidadir.

TADQIQOT VA NATIJALAR

Rus va ingliz, rus, nemis va boshqa tillar materiallari bo‘yicha insonning xarakterini tavsiflovchi frazeologik birliklarni o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator taqqoslash ishlari mavjud, ammo hozirgi kungacha turk va o‘zbek tillarida, xususan, tarkibiy qism jihatidan odamning fe‘l-atvorini ifodalaydigan frazeologik birliklarni monografik qiyosiy tadqiqoti olib borilmoqda. Ushbu ikkala tilda ham odamning xarakterini tavsiflovchi juda ko‘p frazeologik birliklar topilgan, ularning aksariyati yuqori darajada baho berish qobiliyatiga ega. Bundan tashqari, turk va o‘zbek xalqlarining doimiy ravishda kengayib boradigan aloqalari mazkur tillarni faol ravishda o‘zaro o‘rganish, eng yangi va zamonaviy tillarni o‘rganish usullarini yaratish, turli darsliklar, lug‘atlar, ma’lumotnomalar yaratish imkonini bermoqda.

O‘rganilayotgan frazeologik birliklarni tahlil qilishda funktsional-parametrik yondashuvga asoslanib, turk-o‘zbek tillarining frazeologik birliklari, inson xarakterining turli xususiyatlarini anglatuvchi, semantik, strukturaviy-grammatik, uslubiy va milliy-madaniy jihatlar mavjudligi ko‘rib chiqildi. Komponentlarni tahlil qilish jarayonida birinchi marta odamning fe‘l-atvorining namoyon bo‘lishini hisobga olgan holda semantik tarkibiy qismlar aniqlandi, yagona "xarakter" frazemosemantik maydonini tashkil etadigan frazemosemantik kichik guruhlarining barcha xususiyatlari

¹ Turkcha-o‘zbekcha zookomponentli to‘liq muqobil frazeologik birliklar: 1 Сакаева Л.Р. Сопоставительный анализ фразеологических единиц антропоцентрический направленности (на материале русского, английского, таджикского и татарского языков). Автореф... докт. филол. наук. –Уфа, 2009. –С. 11. Исмоилов Ф. Зоокомпонентли фразеологик бирликларнинг этномаданий хусусиятлари // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. №7. –Тошкент: 2013. -В. 98.3. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. -М., 2005. –С.184.

batafsil ko'rib chiqilgan. Rus va xitoy frazeologik birliklarining strukturaviy va grammatik tuzilishini o'rganishda birinchi marta dominant tarkibiy qismdan turli xil morfologik iboralar, frazeologik birliklarning sintagmatik tuzilishi, grammatik tuzilish tabiati, sintaktik munosabatlarni ifoda etish usuli va qaram tarkibiy qismning dominantga nisbatan joylashishi bilan frazeologik birliklarni har tomonlama tahlil qilish amalga oshirilgan. Ushbu yondashuv tufayli har ikkala tilga xos bo'lgan, shuningdek faqat turk tiliga yoki faqat o'zbek tiliga xos bo'lgan frazeologik birliklarning saflari va turlari aniqlandi va turk, o'zbek tillarining tillararo frazeologik ekvivalentlari aniqlandi. Komponent tahlillari odam xarakterining namoyon bo'lishini inobatga olgan holda semantik tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatishga imkon berdi, bu "xarakter" yagona frazemosemantik maydonini tashkil etadigan frazemosemantik kichik guruhlarning barcha belgilarini batafsil ko'rib chiqishga imkon berdi. Frazeologik birliklarning konnotativ ma'nosini o'rganish frazeologik birliklarni hissiyot nuqtai nazaridan to'liqroq tekshirishga imkon berdi.

XULOSA

Xarakterni tushunish frazeologik birliklarni tanlash uchun asos bo'lib, izlanishlar natijasida yagona "fe'l-atvor" frazeologik semantik maydoni sifatida ko'rib chiqildi. Shaxsning fe'l-atvorini anglatuvchi frazeologik birliklar o'zlarining semantik tarkibida xuddi shu nomni o'z ichiga oladi, shu asosda turk va o'zbek tillarida "inson xakteri" iborasi shakllangan. Xarakter tushunchasi yashirin holatda yoki tag ma'no orqali frazeologik birikmalar yordamida ifoda etiladi, Biz yuqorida hayvonlar yordamida inson ichki dunyosini ifoda etilish jarayonlarini ko'rib chiqdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. –T.:O'zbekiston, 2017.–103 b.
2. Sh. Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”.
3. Sh. Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”.
4. Matchonov S., Shojalilov A.va boshqalar. O‘qish kitobi. 4- sinf uchun darslik.- Toshkent, “Yangiyul Poligraph servise”, 2017.
5. Matchonov S., G‘ulomova X., Dolimov Z. 4-sinfda o‘qish darslari.- Toshkent: “Yangiyul Poligraph servise”, 2017.

GIPOTERIOZ HOLATIDA AYOLLAR BACHADONINING ANATOMIK O‘ZGARISHLARI

Saidmurodova Gulhayo Ilhom qizi, Nazarov Botir Saidmurod o‘g‘li,

Baxshullayeva Farog‘at Namozovna

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 2-kurs magistratura talabalari:

saidmurodovagulhayo@gmail.com

+998900919593

Annotatsiya: Ushbu maqolada gipoterozning kelib chiqishi, uning salbiy oqibatlar va jiddiy asoratlari, bugungi kunda kasallikning tarqalishi, gipoteriozda ayollar bachadonining anatomik o‘zgarishlari.

Kalit so'zlar: gipoterioz, endokrin kasalliklar, kasallikning tarqalishi, yod tanqisligi, tiroksin, TTG, hayz siklining buzilishi, bachanning anatomik o‘lchamlari bepushtlik.

Mavzuning dolzarbligi. Morfologik va ultratovush tekshirishlar natijalariga ko‘ra bachadon shakli va o‘lchamlarining yoshga bog‘liq va individual o‘zgaruvchanligini o‘rganish.

Kirish. Adabiyotlardagi ma’lumotlarga ko‘ra, faol reproduktiv yoshdagi ayollarning 40-60 % ginekologik kasalliklarga chalingan bo‘lib, ular homiladorlik va tug‘ruqning asoratlanishiga olib keluvchi xavf omillariga ega. Ayrim xududlarda qiz bolalarning deyarli 1/3 holatlarda jinsiy a’zolar funksiyasining, ya’ni hayz siklining buzilishi, jinsiy rivojlanishning nuqsonlari kuzatiladi. Yosh o‘tgan sayin homiladorlik va tug‘ruq asoratlari gipoterioz sababli yallig‘lanish, o‘sma oldi va o‘sma kasalliklarining ortishiga olib keladi. Ayollar jinsiy a’zolarini tekshirishda eng ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri ultratovush tekshiruv usuli bo‘lib u bachadon va uning konfiguratsiyasini, shakli, o‘lchamlarining xususiyatlari, shuningdek, rivojlanish nuqsonlari va kasalliklarini aniqlash imkonini beradi. [1,2]

Ayollar chanoq‘i turli shakllarga ega bo‘lib, birinchi va ikkinchi yetuk yosh davrida gipoterioz bilan kasallangan ayollarda bachadon o‘lchamlarining o‘ziga xos o‘zgarishlari aniqlandi. Gipoterioz bilan kasallangan ayollarda chanoqning normal va tor shakllarida o‘rtacha $58,0 \pm 1,2$ mm ni tashkil qiladi, chanoqning normal shaklida bachadon tanasining kengligi tor shaklidan ko‘ra 0,7 mm ga katta va o‘rtacha $57,1 \pm 0,6$.mm. Normal chanoq shaklida bachadon tanasining qalinligi o‘rtacha $49,9 \pm 0,5$ mm ni tashkil etdi va ushbu o‘lchamning chanoqning tor shaklidagidan 0,6 mm ga ko‘p. Chanoqning normal shaklida bachadon bo‘yinchasining uzunligi tor shaklidagidan ko‘ra 0,5 mm ga katta va o‘rtacha 3,8 mm ni tashkil qiladi [2].

Gipoterioz holatida ayollarda chanoqning normal shaklida bachadon o‘chamlari (mm)

O‘lchamlari		Variatsion-statistik ko‘rsatkich		
		Min-Max	X±m	Cv%
Bachadon tanasi	Uzunlik	56,0-60,0	58,0±1,2	12,8
	Kenglik	50,0-58,0	57,1±0,6	13,5
	Qalinlik	50,0-58,0	49,9±0,5	14,5
	Bachadon hajmi	155,2 ³ ±165,3 ³	161,2 ³ ±1,1	23,4





Gipoterioz holatida ayollarda tor chanoq shaklida bachadon o‘chamlari (mm)

O‘lchamlari		Variatsion-statistik ko‘rsatkich		
		Min-Max	X±m	Cv%
Bachadon tanasi	Uzunlik	55,0-59,0	57,0±0,5	12,1
	Kenglik	54,6-57,3	56,5±0,6	13,4
	Qalinlik	50,0-58,0	49,9±0,5	14,3
	Bachadon hajmi	155,2 ³ ±165,3 ³	161,2 ³ ±1,1	23,2

Qalinlik-uzunlik indeksini hisobga olib, mezometrik bachadonlar chanoqning tor shaklida (42,2%), normal chanoq shakliga (38,2%) qaraganda 4 % ko‘p uchraydi. Chanoqning tor shaklida leptometrik bachadonlar 2 marta ko‘p uchraydi (7,9%); paximetrik bachadonlar chanoqning turli shakllarida bir xil chastotada uchraydi (5,1%-5,2 %). Tadqiqodimizni 20-50 yoshli gipoterioz bilan kasallangan ayollarda bachadondagi individual o‘zgarishlarga bag‘ishladik. Adabiyotlarda mavjud bo‘lgan taxlillarda ayollar reproduktiv a‘zolarida ultratovushli organometriya bo‘yicha berilgan ma’lumotlar, odatda boshqa patologiyalar mavjudligini tekshirish bilan birga olingan, shuning uchun ular natijalarning statistik ishonchliligi uchun kuzatuvlarning yetarli soniga asoslanmagan, o‘rta xarakterga ega, variatsiya-statistika yo‘li bilan qayta ishlanmagan va individual-tipologik va yosh bo‘yicha o‘zgarishlar hisobga olinmasdan o‘tkazilmaganligi sababli ushbu tadqiqotni o‘tkazishni lozim topdik [3].

Tadqiqotlarimizning natijalari gipoterioz holatida ayollarda bachadonning konfiguratsiyasi tanasi oldinga egilganlanligi (anteversio),bachadon kichik chanoq bo‘shlig‘ida joylashishi, tana va bo‘yicha o‘rtasidagi burchak oldinga ochilishini ko‘rsatdi(anteflexio).20-50 yoshdagi ayollarda 22,7% ayollarda bachadon tanasi va bo‘yni o‘rtasidagi burchak quyidagi holatda bo‘ldi: bachadon tanasining o‘ngga siljishi bilan anteversio holati 5 nafar ayolda (5,1%) kuzatildi; bachadonning ortga reflexio egilishi shakllanishi bilan bachadonning orqaga ketishi retroversio 13 nafar ayolda aniqlandi(11,2%) [4,5].

20 yoshdan 50 yoshgacha gipoterioz holatida ayollarda bachadon o‘chamlari (mm)

	Bachadon o‘lchami	Variatsion-statistik ko‘rsatkich		
		Min-Max	X±m	Cv%
1	Uzunligi	44,0-70,0	61,1±0,5	12,6
2	Qalinligi	42,0-59,0	46,5±0,5	13,0
3	Kengligi	32,0-48,0	41,5±0,4	11,3
4	Bachadon bo‘yni uzunligi	25,0-39,0	31,1±0,7	7,9

Adabiyotlar

- 1.Гипотериоз. Руководства для врачей общей практики. Подредакцией Денисова И.Н.,2015.-30 с.
2. Дедов И.И., Мельниченко Г.А., Фадеев В.В.,Эндокринология. ГЭОТАР- Медиа , 2009.-422 с.
3. Garber J. R, Cobin R.N, Gharib H, et al: Clinical practice guidelines for hypothyroidism in adults: cosponsored by the American Association of Clinical Endocrinologists and the American Thyroid Association. Thyroid 2012; 22:1200-1235
4. Guideline: Management of Subclinical Hypothyroidism. Eur.Thyroid J.2013; 2: 215-228 DOI: 10. 1159/000356507.
- 5.Ismoilov S.I. Endokrinologiyadan tanlangan ma`ruzalar. –Toshkent, 2005.- B. 105-183.
6. Salomatlik kutubxonasi. // Ilmiy jurnal.-Toshkent, 2015. -32 b.
<https://uz.hypothyroidism.com/>
7. <https://journals.sagepub.com/>
8. <https://www.vsmu.by/>
9. <https://rae-org.ru/>
- 10.<https://www.hindawi.com/journals/ijvm/2012/918267/>
11. <https://physoc.onlinelibrary.wiley.com/>

XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARI UCHUN AHAMIYATI

Mahliyo Xoliqova

JDPU “Boshlang‘ich ta‘lim” fakulteti 3-bosqich talabasi

+998937770518

mahliyoxoliqova02@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada PIRLS (Progress In International Reading And Literacy Study) tarixi hamda o‘qish savodxonligini rivojlantirish uchun matn keltirilgan.

Kalit so‘zlar: PIRLS, IEA, tadqiqot, savodxonlik, Alisherning yoshligi, hikoya.

KIRISH

Hozirgi davrda mamlakatimizda ta‘lim tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Kundan kunga yangi qarorlar, qonunlar, farmoyishlar qabul qilinmoqda. Davlatimizning porloq kelajagi bo‘lishga poydevor bo‘ladigan yoshlarning ta‘lim olishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Hozirda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini yuqori malakali o‘qituvchilar qo‘lida ta‘lim olishi, ularning jahon standartlariga javob beradigan kadrlar bo‘lib yetishishi uchun barcha shart-sharoitlar hozirlanmoqda. Yoshlarning bilimini, dunyoqarashini kengaytirish uchun O‘zbekiston Respublikasi ham Xalqaro o‘quvchilarni baholash tadqiqotlarida qatnashadigan bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishga erishish hamda xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fan yo‘nalishidagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta‘lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilanganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

ASOSIY QISM

PIRLS dasturi 2001-yilda Ta‘lim sohasidagi yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA International Association For the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas‘uliyat Chestnut Hill (Massachusetts AQSH) Boston kollejiga yuklatilgan. Shuningdek, tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Germaniya (Gamburg) ma‘lumotlar markazida amalga oshiriladi.

Xalqaro baholash dasturi PIRLS (Progress In International Reading And Literacy Study) dunyoning turli mamlakatlari milliy ta‘lim tizimida o‘qish

savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarini qiyoslashga yo'naltirilgan.

Shuningdek, PIRLS yosh o'quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta'lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi.

PIRLS xalqaro dasturida tadqiqot uchun mo'ljallangan ertak, hikoya o'quvchiga beriladi. O'quvchi ertak yoki hikoyani ongli ravishda tushunib o'qiydi hamda berilgan savollarga javob yozadi. Asar o'quvchining fikrlash doirasini kengaytirishga yordam beradi. Quyida “Alisherning yoshligi” matni hamda o'quvchilar bilimini sinash uchun savollar keltirilgan.

ALISHERNING YOSHLIGI

Oybek

G'iyosiddin Kichkina bog'da bir bek bilan oyoq ustida turib suhbat qurar edi. Alisher sevinib, otasi oldiga yugurdi, bo'ynidan quchib o'pdi-da, chetda turgan onasi oldiga yugurdi, birga ko'chaga chiqib ketdilar.

- O'g'il chakki emas, tiyrak, begona ko'zdan asrasin! – dedi zimdan bolani ta'qib qilib turgan bek.

G'iyosiddin Kichkina kamtarona ohangda:

- Ilohim, mulla bo'lsin, zehni yaxshi, - dedi. So'ng o'zi ham ichida: “Ha, Tangrim yomon ko'zdan asrasin”, - deb qo'ydi.

Alisher o'zi tengi ikki qo'shni bola bilan hovlida soqqa o'ynardi. Bolalarning ustida malla yoqa bo'z ko'ylak, boshlarida kir oq takya, oyoqlari yalang. Alisher ham xiyla uringan, eskirgan etiklarini yechib, devor tagiga tashlagan edi. Soqqalarni uzoqqa uloqtirib, keyin halloslab yugurdilar. Alisher harakatchan, yugurik, soqqa ortidan chopganida o'rtoqlaridan qolishmaydi.

O'yindan zerikkach, soqqalarni yig'ishtirib, devor soyasida bir lahza cho'qqayib o'tirdilar. Shu tobda daraxtlar orasidan otilib chiqqan kiyik Alisherni hidladi, erkalanib surkaldi. Alisher kiyikning bo'ynidan quchib, boshini silab ulgurmagan ediki, jonivor bir zumda yo'q bo'ldi.

- Seni tanir ekan, qurmagur, xo'b o'rgatibsan o'zingga, - dedi bolalardan biri.

- Rost, qoyilman! – deya ma'qulladi zavq bilan ikkinchi bola.

- Tog'am, ermak bo'lsin, deb dashtdan olib kelgan edilar. U kishi usta merganlar. Hayvonlarning, ayniqsa, kiyiklarning xulq-atvori, qiliqlari haqida maroq bilan hikoya boshlasalar, kulli jahonni unutib yuboray deyman.

To'satdan yana paydo bo'lgan kiyik halloslagancha Alisherning pinjiga bosh suqdi. Sevinib ketgan Alisher:

- Mu-mu, birpasgina jim tur, - dedi kiyikni erkalab.

- Pok, ozoda, ajoyib, suluv jonivor, - dedi zavq bilan tomosha qilgan bola.

- Katta bo‘lganimda ovchi bo‘lgumdir, tog‘larda merganlik qilishning kayfi zo‘r, - dedi kiyik ketgan tomonga tikilganicha ikkinchi bola.

- Bizning vatanimiz Hirot o‘lkasi jannatmakon desak lof bo‘lmas, do‘stlarim, - dedi Alisher cho‘p bilan yerga nelardir chizgan holda, boshini ko‘tarmasdan. – Meningcha, bo‘ri, yo‘lbars yanglig‘ vaxshiy hayvonlarni ov qilmoq ma’qul. Kiyikday beozor maxluq, fahmimcha, dunyoda kamdur deyman.

- Qiyofasining suluvligini qaranglar! Go‘shiti ham lazatlidir-a? – dedi qoracha bola, soqqalarini sanay turib.

- Ov qilmoq, merganlik – ermak narsa, lekin eng zo‘r zaruriyat maktabdir. Turmushning ko‘p sirlarini maktab o‘rgatadi.

Suhbatning bunday keskin o‘zgarganidan shoshib, bir on jim qolgan bolalarning kattarog‘i:

- Kim o‘rgatdi senga bu gaplarni? – deb so‘radi Alisherga tik qarab.

- Bilaman-da, otam hamisha: “Olim odam xor bo‘lmaydi”, - deydilar. Otamning oldiga olim odamlar ko‘p keladi, turli gap-so‘z, ajoyib g‘azallarni bir chetda o‘ltirib tinglaymen, o‘zim ham xiylagina g‘azallarni yod bilurmen...

Alisher yaqinda maktabga borajagini, otasi ko‘pdan va‘da qilib yurganini aytmoqchi edi, lekin aytmadi.

1. Alisherning otasining ismi nima edi?

A. G‘iyosiddin

B. Qosimbek

C. Yusufbek

D. Badriddin

2. “Pok, ozoda, ajoyib, suluv jonivor” qaysi jonivor edi?

A. Kuchuk

B. Kiyik

C. Mushuk

D. Quyon

3. Alisher bolalar bilan qanday o‘yin o‘ynayotgan edi?

A. Kimo‘zar

B. Chillak

C. Qilichbozlik

D. Soqqa

4. Alisherning “Turmushning ko‘p sirlarini maktab o‘rgatadi”, - gapini izohlang.

5. Alisherga kiyikni kim olib kelib bergan edi?

A. Tog‘asi

- B. Dadasi
- C. Akasi
- D. Bobosi

6. Nima uchun Alisher yaqinda maktabga borajagini, otasi ko‘pdan va‘da qilib yurganini do‘stlariga aytmadi?

7. Bolalar nima haqida suhbatlashishdi?

8. Soqqa o‘yinini kimlar o‘ynayotgan edi?

9. Alisherning zehni o‘tkirligini qaysi gaplaridan bilsak bo‘ladi?

10. Kiyikning xulq-atvori, qiliqlari haqida Alisherga kim hikoya qilib beradi?

- A. Bobosi
- B. Akasi
- C. Tog ‘asi
- D. Dadasi

XULOSA

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘tkazilayotgan xalqaro o‘qish savodxonligi dasturidagi amalga oshirilayotgan ishlar o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish uchun o‘z hissasini qo‘shadi. O‘quvchilar uchun belgilangan matn dastlab ixcham, sodda ko‘rinishda beriladi. Bu esa o‘quvchilar matndagi savollarni yechishga moslashib, uni qanday bajarish ko‘nikmasini egallashiga yordam beradi. Har bir matn, o‘tkazilayotgan tadqiqotlar, bilimli o‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘z bilimlarini boyitib borishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash. (Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma) <<Sharq>> nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent-2019.
2. PIRLS 2021 baholash qamrov doirasi(Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi) Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo‘limi” Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Nurxon ko‘chasi, 21-uy.
3. O‘qish kitobi. (Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik) Toshkent - <<YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE>> - 2020.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING O'ZIGA XOS AHAMIYATI

Abdurasulova Jasmina Ahmadjon qizi

Namangan davlat universiteti Ingliz filologiyasi fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimining kelgusi ta'limlar uchun ahamiyati, o'qituvchilar uchun yangicha dars usullaridan foydalanishlari kerakligi borasida tavsiyalar, bugungi zamon talabiga aylanayotgan xorijiy tillarni o'qitishning boshlang'ich ta'limdan boshlash va yurtimizning ta'lim tizimidagi xuddi shu masalalar borasida fikrlar yuritilgan

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, xorijiy tillar, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, ko'rgazmali qurollar,

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning tayanchi ekanligi barchaga ma'lum, albatta. Shunday ekan, boshlang'ich sinflarning kelajakda munosib o'rnini topa oladigan yetuk shaxslar bo'lib yetishishlarida bugungi kun talabiga aylanib ulgurgan xorijiy tillarni chuqur bilish muhim o'rin tutadi.

Respublikamizdagi joriy ta'lim tizimida bir qator ta'limiy qonun hujjatlarida ham bu masalaga alohida to'xtalib o'tilgan. Qolaversa, 1-sinfdan 4-sinfgacha bo'lgan yosh oralig'idagi o'quvchilarga boshqalarga nisbatan chet tillarini yanada chuqurroq o'rgatib, kelgusi sinflarga poydevor qurish maqsad qilingan. Xususan, «O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda boshlang'ich ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Boshlang'ich ta'lim sinflari uchun o'quv reja va dasturlar ishlab chiqilgan. O'quv reja asosida ona tili, matematika, tibbiyot, tarix (tarixiy mavzudagi matnlar asosida), rus tili, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazilish belgilanagan» edi. Bugungi kundagi yangi qonunda esa shu fanlar orasiga xorijiy tillar, ya'ni ingliz tilini mukammal tarzda o'quvchilarga o'rgatish belgilab qo'yildi.

Xorijiy til samaradorligini oshiris, albatta, unda foydalaniladigan inovatsion dars usullaridan kelib chiqqan holda tashkil etiladi. Ya'ni zamonaviy metodlar, axborot texnologiyasi vositalaridan. Bulardan:

1. Ko'rgazmali qurollardan foydalanish orqali. Bu usuldan foydalanish o'zgacha ahamiyat kasb etgan holda, o'quvchilar ingliz tilidagi so'zlarni eshitish bilan bir qatorda ana shu so'zlarning rasmlarini ham ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, «banana» - banan, va «apple» - olma so'zlarini olsak. Bunda ikki meva nomini o'qituvchi aytadi va o'quvchilar bu mevalar va ularning ingliz tilidagi nomini eslab qoladilar. Lekin shu bilan bir qatorda, bananning sariq rangda, olmaning qizil

rangda ekanligi bolalarda qo'shimcha savol uyg'otishi mumkin bo'ladi. Va, albatta, qiziquvchan o'quvchilar bu rag'larni nomlarini ham o'qituvchidan talab qilishlari mumkin yoki o'qituvchining o'zi ularga tushuntirishi mumkin. Bundan shu xulosani keltirib chiqarish mumkinki, bittagina mevaning rasmi orqali o'quvchilar uning nomini, rangini, ta'mini va hokazolarni bilib olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

2. Sinf muhitini yaxshilash uchun qo'shiq va harakatli o'yinlar. Bu usulda «moslashuvchan sinf atmosferasini yaratish, ba'zida har qanday ta'lim usulidan ko'ra muhimroqdir. Dars boshlanishidan avval sinfxonada yoqimli qo'shiq bilan o'qituvchi boshchiligidagi barcha bolalar birgalikda qo'shiq kuylaydilar va uning ohangiga mos raqsga tushadilar. Bu o'z-o'zidan ularning tanalarini chiniqtirib, yanada tetik bo'lishlariga hamda qo'shiq so'zlarini tez yod olishlariga yordam ber adi. Ana shunda o'qituvchi maqolga mos ravishda: bir o'q bilan ikki quyinni urgan» bo'ladi.

3. Tana harakatlari orqali dars o'tish. Bu usulda o'qituvchi aktyorlik mahoratini ishga solgan holda bolalarga turli predmetlarning ingliz tilidagi nomini aytadilar. Ana shunda o'qituvchi tomonidan nomlangan va ishoralar orqali ko'rsatilgan predmetni o'quvchilar tasavvur qilgan holda nomini tez topa oladilar. Yoki qo'l ishoralari orqali o'qituvchi o'quvchiga buyruq berganda (masalan, doskaga chiq, o'tir, tur va h.) o'quvchiga bu harakatlarning tarjimasini tushuna olishi oson bo'ladi.

Har bir ishning rivojlanishida bajarish tartibi va bajaruvchining tajribasi ahamiyatga egadir. Xususan, yuqorida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilida o'tiladigan yangicha metoddagi dars usullarini sanab o'tilgan bo'lsa, quyida o'qituvchining kamchiliklarga yo'l qo'ymasliklari uchun bir qancha tavsiyalarni berib o'tishimiz mumkin:

- Ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi o'rtasidagi to'siqlarni olib tashlash. Bu yo'l orqali tarbiyachi, ya'ni o'qituvchi bolalarning qalbiga osongina yo'l topa oladi. Ularga muloyimlikni his ettirib, savol-javobga kirishishi lozim.

- Bolalarning psixologiyasiga asoslanib savollarni berishi kerak bo'ladi. Bu o'qituvchidan bolaning o'qish darajasiga qarab savol tayyorlab kelishini talab etadi.

- O'tilgan mavzulardan ko'proq so'rash lozim. Bu o'quvchidagi hayajonni asta-sekin yo'qolishiga olib keladi. Ya'ni o'quvchida yangi mavzuni o'rganish uchun ko'nikma hosil bo'lgunga qadar biroz hayajonli vaziyat bo'ladi. Ana shu holatni bartaraf etish uchun ham boladan avvalgi darslarda o'rgatilgan va u biladigan savollardan so'rab turish o'qituvchidan talab etiladi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, bugungi zamonaviy dunyoga munosib yosh avlodni har tomonlama mukammal holda yetkazib berish o'qituvchilardan talab etiladigan eng ustuvor vazifa sanaladi. Eng asosiysi, farzandlarimizni jahon tillarini mukammal o'rganishlari, Vatanimizning nomini yer yuziga tanitish uchun muhim debocha bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.M atnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov. Umumiy pedagogika. «Fan va texnologiya».2018.
2. Sharipov Sh.S., Muslimov N.A. (TDPU) . Professor-o’qituvchilar davt - talabi.// Toshkent. Pedagogika. 2015.

Internet ma’lumotlari:

1. www.uz.m.wikipedia.org
2. www.blog.xabar.uz

UMUMTA'LIM MAKTABLARNING BOSHLANG'ICH TA'LIMIDA KASBGA YO'NALTIRISH

Mamirova Gulhayo Boxadirovna

Jizzax viloyati G'allaorol tumani

79-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda dastlabki pedagogik jarayonlar tahlil etilgan bo'lib, bu jarayonda o'qituvchining pedagogik mahorati, kasb tanlashga oid bilim va ko'nikmalari, vazifalari, shuningdek kasb tanlashda shaxs xislatlari, o'quvchi psixologiyasi, o'quvchilarni kasb tanlashga tayyorligini ko'rsatuvchi mezonlar, o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirishga tayyorlashni yosh bosqichlari mazmuni haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: O'qituvchi, o'quvchi, boshlang'ich ta'lim, kasb, kasbga yo'naltirish, yosh davrlar psixologiyasi.

Аннотация: В данной статье анализируются предварительные педагогические процессы в профориентации учащихся начального образования, в процессе которых дается информация о педагогическом мастерстве педагога, знаниях и умениях по выбору профессии, задачах, а также о качествах личности при выборе профессии, психологии школьника, критериях готовности учащихся к выбору профессии, содержанию возрастных этапов подготовки учащихся к профориентации.

Ключевые слова: учитель, ученик, начальное образование, профессия, профориентация, психология возрастных периодов.

Abstract: This article analyzes the preliminary pedagogical processes in the vocational guidance of primary school students, during which information is given about the pedagogical skills of the teacher, knowledge and skills in choosing a profession, tasks, as well as about the qualities of the individual when choosing a profession, the psychology of the student, the criteria for the readiness of students to choose a profession, the content of the age stages of preparing students for career guidance.

Keywords: teacher, student, primary education, profession, career guidance, psychology of age periods.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o'zgarishlarning samarasi, yurtimizning taraqqiy topgan davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashi avvalo, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining rivoji bilan uzviy bog'liqdir. Olib borilayotgan

islohatlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish boyicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmonining “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishda ta‘lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san‘at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish ka‘bi vazifalar belgilangan . Bugun zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni, xorijiy tillarni puxta egallab, katta umid va ishonch bilan hayotga qadam qo‘yayotgan, ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo‘lgan farzandlarimizning munosib kamol topishida o‘qituvchi va murabbiylarimizning hissasi beqiyos ekanini ta‘kidlash lozim. Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi nafaqat o‘quvchilarga ilm-fan olamining dastlabki bilimlarini beradi, balki ushbu jarayonda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltiradi.

O‘quvchi bolaligidan biror bir kasbga mehr qo‘yadi, uni orzu qiladi, o‘sha kasb egasi sifatida o‘zini tasavvur qiladi. Mazkur tasavvurning realligini ta‘minlashda o‘qituvchining katta o‘rni bor. Negaki, o‘qituvchi hali mukammal shakllanmagan bola tasavvurida go‘yoki bir “sehrGAR”, tengsiz murabbiydir. Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish bo‘yicha olib boriladigan ishlarining barcha shakl va metodlari o‘quvchilarning maqsadli ravishda kasb tanlashlariga xizmat qilishi lozimdir. Maktabda kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini yo‘lga qo‘yishda an‘anaviy amaliy mashg‘ulot, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik o‘yin, mustaqil fikrlar kabi yangi pedagogik texnologiya elementlaridan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilari kasb tanlashdan hali uzoq turadilar. Biroq ular o‘rtasida to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan kasb tanlash ishi shunday bir negiz bo‘lishi kerakki, yuqori sinflardagi o‘quvchilarning kasbga bo‘lgan qiziqishlari, o‘y va niyatlari keyinchalik shu negiz asosida rivojlanadigan bo‘lsin.

Beistisno barcha kasblar uchun zarur va muhim bo‘lgan shaxs xislatlari bor, bular:

– Mehnatsevarlik, hamma kasb va mutaxassislikdagi mehnat ahliga nisbatan hurmat-ehtirom;

– mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash;

– o‘z ishini rejelashtira va nazorat qila bilish;

– ish joyini to‘g‘ri tashkil qilish, ish batartib va intizomli bo‘lish;

– toqatlik, sabotlilik, topshiriqni bajarishning eng oqilona usulini tanlab ola bilish;

materiallar hamda vaqtni tejash va shu kabilardir. Ana shu xislatlar va fazilatlarining hammasini o‘quvchilarda birinchi sinfdan boshlab shakllantirish lozim .

Bolalarni kasblar olamiga asta-sekin olib kirish, ularni shu olamda mo‘ljal olishga o‘rgatish zarur. O‘qituvchi o‘quvchini darslarda kuzatish, u bilan suhbatlashish, bola faoliyati mahsulini tahlil qilish jarayonida uning ba‘zi bir

xususiyatlarini, mayllarini payqab oladi, bu xislatlarni rivojlantirish yuzasidan tegishli ishlarni ado etgandan keyin bular keyinchalik kasbni belgilashda asosiy omil bo‘lishi mumkin.

Kasb tanlash uchun o‘quvchi o‘z imkoniyatlarini baholay olish ko‘nikmasiga, ya’ni aqli, qiziqishi, har xil kasblar bo‘yicha bilimli, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axborotga ega bo‘lishi kerak. Shaxsni kasbga yo‘naltirish maxsus ilmiy amaliy faoliyat orqali amalga oshiriladi, o‘quvchilarning inson sifatida shakllanish bosqichlarida shaxs va jamiyat ya’ni oila yagona bir tizim sifatida qaraladi, o‘tish davrida bozor iqtisodiyoti munosabatlari talablari inobatga olinadi. O‘quvchilarni kasb tanlashga tayyorligini ko‘rsatuvchi mezonlar:

- kognitiv (axborotga ega ekanligi);
- kasbga qiziqish mezon;
- amaliy mezon .

Kasbni to‘g‘ri tanlash har bir o‘sib kelayotgan avlodning obektiv vajlariga, qiziqishlariga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo‘lishi uchun uning sog‘ligini, o‘zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko‘ra ko‘prok o‘z ifodasini topadi va namoyon bo‘ladi. Bolaning kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash esa keyinchalik unga o‘z xususiyatlariga qarab kasbni to‘g‘ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o‘zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin. Ko‘pgina olimlar o‘tkazgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktab o‘quvchilarining taxminan 30 foizida tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang‘ich sinflardayoq shakllanar ekan.

O‘qituvchining vazifasi — o‘quvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashdan va jamiyat talab-ehhtiyojlariga muvofiq shu qiziqishlarini rivojlantirishdan, inson shaxsini har tomonlama uyg‘un kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat . Boshlang‘ich sinflarda mehnat ta’limining asosiy maqsadlaridan biri — o‘quvchilarda inson uchun mehnat birinchi zaruriyat, ijtimoiy burch ekanligiga, har qanday kasbni egallash uchun mustahkam va chuqur bilimlar kerakligiga ishonch hosil qilishdan iborat. Mehnatga muhabbatni va ishlash istagini faqat mehnatda tarbiyalash mumkin. Shu boisdan ham mehnat ta’limi darslarida qariyb 80 foiz vaqt amaliy ishlar uchun ajratilgan. O‘quvchilarning shaxsini o‘rganish ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘qituvchi o‘quvchining alohida xususiyatlarini payqab, unda mavjud iste’dod nishonlarini rivojlantirish metodlarini topa olishi, uning xulq-atvoridagi salbiy jihatlarini bartaraf etishi mumkin va h. k. Ba’zi bolalarda kasbga moyillik yaxshi namoyon bo‘ladi, ko‘pchilik bolalarda bu narsa birdaniga aniqlanmaydi.

O‘qituvchining boladagi iste’dod nishonalarini aniqlashi, bularni qobiliyatini rivojlantirish va shakllantirishda ko‘maklashimni muhimdir. Yuqorida ta’kidlab

o‘tilganidek, kasbga yo‘naltirish ishi — o‘quv jarayonining uzviy tarkibiy qismidir. Quyi sinflardan boshlanadigan bu ish jamiyat uchun zarur, har bir kishining xususiyatlariga mos kasblarga barqaror qiziqishni tarbiyalashga yordam beradi. Mehnatga qiziqishning mavjudligi va mehnat qilishga shaylik — shaxs yetukligining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biridir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ish o‘quvchilarni kasb-korni ongli ravishda tanlashga, ularni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, moddiy ishlab chiqarish, fan, texnika borasida va shu kabi sohalarda ularda ishga qiziqishni shakllantirishga ko‘p jihatdan yordam beradi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda olib borilayotgan kasbga yo‘naltirish ishida o‘quvchilarning yosh va bilish xususiyatlariga qarab bir necha bosqichni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Birinchi bosqich (I-IV) sinflarning o‘quvchilari bilan ishlash — moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnat bo‘lgan ijtimoiy qiziqishlarni shakllantiradi, o‘quvchilarda umuman mehnatga ijobiy munosabatda bo‘lishni, eng muhimi — jismoniy mehnatga shunday munosabatda bo‘lishni, ishchi degan nomni hurmat qilishni, qo‘lidan keladigan o‘z mehnati bilan atrofdagi kishilarga quvonch bag‘ishlashga va bundan ma‘naviy qoniqish olishga intilishni shakllantiradi. Bu boradagi ishlar oldindan tuzilgan reja asosida olib boriladi. Bu rejaga muvofiq ekskursiya uyushtirish eng ommalashgan kasblar to‘g‘risida qishloq maktablarining o‘quvchilari uchun jamoa xo‘jaligida, shahar maktablarining o‘quvchilari uchun korxonalarda, ota-onalarning ishlari va ularning mehnatda erishgan muvaffaqiyatlarida suhbatlar tashkil qilish ko‘zda tutiladi. Ekskursiyalar chog‘ida ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan odamlarning mehnatiga, xom ashyodan tayyor mahsulot olishga berayotgan mehnat qurollariga asosiy e‘tibor beriladi, jamiyat va ayrim odamlar turmushida mehnatning roli o‘qtirib o‘tiladi.

Ikkinchi bosqich (V-VII) sinflarning o‘quvchilari bilan ishlash — biron ish qilishga undaydigan bosqich. Ma‘lumki, ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarda bilishga bo‘lgan qiziqish, odatda, kasbga bo‘lgan qiziqishdan oldin shakllanadi. Shu boisdan ushbu bosqichida kasbga yo‘naltirish sohasida olib borilayotgan ishda o‘quvchilarda ish turlari (texnika bilan ishlash, tabiat obyektlari va shu kabilar bilan ishlash) ni bilishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish muhimdir.

Kasbga yo‘naltirishning ana shu bosqichida texnikaga va mehnatga (texnika ijodkorligi va qishloq xo‘jalik tajribachiligiga) oid sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, viktorinalar, o‘yinlar katta rol o‘ynashi lozim. Bu bosqichda o‘quvchilarda ijtimoiy maqsadlarning shakllanishi davom etadi, shu bilan birga kasbga yo‘naltirish ham boshlanadi.

Uchinchi bosqich (asosan VIII-XI) sinflarning o‘quvchilarini qamrab oladi — bu bosqichida o‘quvchilar o‘z kuchlarini konkret mehnatda tekshirib ko‘radilar, o‘quvchilarning kasbga bo‘lgan qiziqishlari va mayllari yanada shakllanadi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki: O‘quvchilar bu bosqichda o‘z kasbiy niyatlarining

birmuncha umumiy kasblar bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalar bilan mustahkamlaydilar. Bu bosqich konkret kasbni tanlash, uni o'zlashtirish yo'llarini belgilash bilan tugaydi. O'quvchilarni qiziqishlari (predmetlar, predmet-texnika, ishlab chiqarish-texnika va shu kabilar) bo'yicha to'garaklarda ishlashi ushbu bosqich uchun diqqatga sazovordir. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini kasbga yo'naltirish jarayonini yanada takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflar tavsiya etiladi: – kasbga yo'naltirishda yakka tartibda ishlashga e'tibor qaratish; – mavzu yuzasidan davra suhbatlarini tashkil etish; – turli kasblarga oid audio-video materiallar bilan tanishtirish; – sinfdan tashqari ishlarni kasb tanlashga yo'naltirish; – turli soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar tashkil etish; – madaniy tadbirlar tashkil etish; – kasblar burchagini tashkil etish va shu mavzuda ko'chma ko'rgazmalar tashkil etish. Xulosa sifatida qayd etish mumkinki, o'quvchilarni o'z vaqtida to'g'ri kasbga yo'naltirish mamlakat taraqqiyotining kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha, harakatlar strategiyasi to'g'risida” gi PF-4947-son Farmon. www.lex.uz
2. Jumaboyeva M. Umumiy o'rta ta'limda kasbga yo'naltirish ishlarining tuzilmasi va mazmuni. Kurs ishi. Andijon qishloq xo'jaligi instituti, 2014. — 21 b.
3. Mardanov D. Maktabda kasbga yo'naltirish ishlari. — Nukus. 2013. — 182 b.

BO’LAJAK KIMYO FAN O’QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH

Egamberdiyev Ikrom Botirovich

Kimyo va uni o’qitish metodikasi kafedrasida katta o’qituvchi,

Ergasheva Ma’mura Zoir qizi

Tabiiy fanlar kimyo yo’nalishi 211-22-guruh

Annotasiya. Bo’lajak kimyo fan o’qituvchilarini kasbiy faoliyatini shakllantirish uchun yangi pedagogic ta’lim texnologiyalardan foydalanish-inter faolmetodi, didaktiko’yinlar, hamkorlikda o’qitish-sinov darslari mazmuni kiritilgan. Kasbiy kompetentligini rivojlantirish va dunyo ta’lim tuzilishiga moslashishi, kimyoning nazariy masalalarini o’qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish to’g’risida ma’lumotlar keltirilgan, mustaqil ishlash uchun tarqotma matriallar bo’lajak kimyo fan o’qituvchilarini kasbiy faoliyatini shakllantirishga yo’naltirilgan.

Kalit so’z va iboralar: kimyo va uni o’qitish metodikasi- kimyoviy tafakkur va umimg shakllanishi kimyoviy jamg’arma, o’qitishning metodik prinsipi.

Bugunki kunda Ozbekiston respublikasida ta’lim samaradarligini oshirish uchun kimyo fan o’qituvchisining kasbiy faoliyatini oshirish, yetarli bilim va ko’nikmalarga va tajribalarga ega bo’lishi zarur. O’quv bozalari, kerakli ma’lumatlar va kerakli matriallarning barchasi tayyorlab qo’yilgan davlat ta’lim standartlariga mos bo’lishi kerak. Fan dasturlar, ishchi dasturlar, kimyo faniga mo’ljallangan adabiyotlardan foydalanish kerakligini, mustaqil ishlash uchun tarqotma matriallar bo’lajak kimyo fan o’qituvchilarini kasbiy faoliyatini shakllantirishga yo’naltirilgan.

O’quvchilarning bilim olishi uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadga muvofiq bo’ladi. Kimyo fanini chuqur o’rgatishga mos ravishda mavzular ketma-ketligi reja asosida yo’naltirilgan bo’lishi lozim. Kimyo fanini o’qitishda yangi innovatsion texnologiyalarni dars jaryonida qo’lash uchun kimyo fan o’qituvchisi quydagilarni bilishi kerak bo’ladi [1].

- bo’lajak kimyo o’qituvchisi mavzuga oid nazariy ma’lumatlarga ega bo’lishi.
- bo’lajak kimyo o’qituvchisi amaliy ko’nikmalarning shakllanishi.
- bo’lajak kimyo o’qituvchisi laboratoriya mashg’ulatlarda tajribalarni bajarish usullarini bilishi.
- bo’lajak kimyo o’qituvchisi tarqotma matriallardan dars jarayanida to’g’ri samarali foydalanishni bilish.
- bo’lajak kimyo o’qituvchisi kimyo fani bo’yicha yangi innovatsion adabiyotlarni qo’llashni bilish.

- bo'lajak kimyo o'qituvchisi nozorat turlarini og'zaki boyon etish, yozma ish va test nazoratlarini baxolashni to'g'ri tashki etishni bilishi.

-bo'lajak kimyo o'qituvchisi kimyo darsida qo'llaniladigan yangi innovatsion ta'lim texnologiyalarni bilish

- bo'lajak kimyo o'qituvchisi mavzuga mos keladigan metodlarni to'g'ri tanlashni bilish

- bo'lajak kimyo o'qituvchisi fan bo'yicha olimpiadalarga tayyorlashni bosqichma-bosqich amalga oshirishni bilish.

-

bo'lajakkimyo o'qituvchisikimyofanibo'yichato'garaklarnivatadbirlaro'tgazishnibilish i.

- bo'lajakkimyo o'qituvchisiatamaso'zlarni ,kimyotilinibilish ,kimyodan masalavamisolmashiq'larniechishnibilish.

-bo'lajakkimyo o'qituvchisi test tuzishniasonvamurakkabtestlarnituzishnibilish [1].

- o'zustidanishlaydigankadrlarma'naviyjixotdanbarkomalbo'lishi.

Kimyodarslarinio'qitishdabo'lajak fan o'qituvchisiushbuko'rsatilganpunktlarnipuxtaegalasamaktabda , kollejlarda,akedemliseylardavaoliyta'limtizimidakimyodarslarinio'taoladigankadrlar nitayyorlash, o'qituvchiningmalakaoshirishsertifikatigaegabo'lishi,ingiliztilivaboshqaxarijiytillarnib ilishidarajasinihisobgaolishkerakbo'ladi .

Har bir pedagog kimyogar o'qituvchi Ilmiy jixotdan, ilmiy-uslubiy va ana'naviy jihatdan borkomal bilimga ega bo'lishi lozim, dunyo qarashi keng fikirlash qobiliyati etarli bilim darajasi aniq bo'lgan kadrlar mos bo'lishi kerak.

Nazariy ma'lumotlarni to'g'ri etkaza oladigan kadrlarga yangi pedagogik-pisxologik bilimlar kerak bo'ladi bunday jarayonda pedagogik texnologiyalarning o'rni katta bo'ladi [2].

Ta'lim texnologiyalari

1.**Modulli ta'lim**- Modul (lotincha modulus so'zidan olingan bo'lib qism, bo'lak, blok ma'nolarini bildiradi.

2 **Muammola ta'lim**- Muammoli bayon etish, bunda pedagog mustaqil ravishda muammoli vaziyatni keltiradi va uning mustaqil yechimini qidirladi, to'padi.

3 **Inter faol metodi**-ijodiy faolligi, izlanuvchanligi, mustaqil ishlashga intilishi kabi ijobiy holatlarni shakllantirishning eng samarali usullidir.

4. **Didaktik o'yinlar**-o'quv materialini mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi, dunyoqarashni kengaytiradi, ijodiy fikrlashni qobiliyatini oshiradi, rivojlantiradi.

5. **Hamkorlikda o‘qitish** - o‘quvchilar guruhi, hamda butun sinf bilan o‘zaro samarali hamkorlikni tashkil etadi [3].

6. **Sinov darslar**-Axborot texnologiyalari o‘rganish maqsadida Test, yozma ish, variantlar oraliq nazorat joriy nazorat, yakuniy nazoratlar e‘lon qiladi.

Dars jarayanida ‘**keys-stadi**’ metodidan foydalanish juda muhimdir keys-stadi” metodining ahamiyati mavzusini yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib o‘qitish, ta’lim metodlarini, to‘g‘ri tanlash, “Keys-stadi” metodlarini qo‘llab o‘quvchilarni aniq vaziyatlarni va taxlil qilishga, guruh bo‘lib ishlashga, mustaqil fikrlashga o‘rgatishdan iborat. Ta’lim texnologiyalari asosida keys-stadi metodini qo‘lash natijasida o‘quvchilarning bilimi oshadi [4].

Keys-stadi’metodidan foydalanish- O‘quvchilarning qiziqishi, ilmiy ijodkorligini oshiruvchi, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha tajriba to‘plangan. Keys-stadi interaktiv ta’lim uslubi sifatida tinglovchilar tomonidan eng afzal ko‘riladigan metodlar qatoriga kirmoqda. Ushbu texnologiya o‘qituvchi va tinglovchilarning umumiy intellektual va kommunikativ salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim texnologiyasidir [1].

Keys-stadi- (inglizcha case - to‘plam, aniq vaziyat, stadi -ta’lim) - keysda bayon qilingan va ta’lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzda yechimi variantlarini izlashga yo‘naltiradigan aniq real yoki sun‘iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta’lim uslubidir. Keysni bajarish uchun o‘quvchi quyidagi bilimlarga ega bo‘lishi lozim.

Nazariy ma’lumatlar slaydlar orqali namoyishidan malaka va ko‘nikmalari shakllanganbo‘lishi, video ro‘liklar darsga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi , tajirbalar orqali asosiy tushunchalar shakllangan bo‘lishi lozim.

Foydalangan adabiyotlar

1. Omonov H.T.,Maranmova U.R. Kimyo o‘qitishning jamiyatagi o‘rni va ahamiyati. Kongsentrik ta’lim kontekstida innovatsion texnologiyalar.ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami.Toshkent,Yangi nashir 2017.-B-193.
2. Egamberdiyev I.B. Kimyo o‘qitishda tarixiy ma’lmatlardan foydalanishning zaruriyati Toshkent,Yangi nashir 2001 yil.
3. N.Sayidaxmedov «Yangi pedagogik texnologiya » Toshkent. 2003yil.
4. Ishmuxammedov R.J. «innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim2003y

is increasing noticeably. During the 11th month of 2022, the number of deaths caused by industrial accidents in Uzbekistan is 229. This was reported by the State Labor Inspection of the Ministry of Labor Relations. The number of officials brought to criminal responsibility for deaths is 194, and the number of officials brought to administrative responsibility is 121. According to the data provided since 2018, the number of deaths is increasing. For example, the number of such cases was 182 in 2018, 199 in 2019, 200 in 2020, and 238 in 2021.





Figure 1. The figures for 2022 include 11 months of data.

Red - cases of death, blue - officials brought to criminal responsibility, green - officials brought to administrative responsibility.

From the statistics given above, we can see that the number of accidents occurring in production enterprises is increasing. I have decided that I need to pay more attention to abovementioned situation and launch Control tablet program that has never been done before. The task of the program is to strengthen the control of employees by collecting information about accidents, labor protection inspectors, working conditions of employees, protective equipment and orderliness of instructions. If the rules of the work process are violated, fines are applied in the prescribed order.



*Figure 2. Control tablet program menu window.
List of employees; Types of fines; Departments;
Accidents; Statistics; Add an employee.*

The purpose of this program is to prevent possible accidents and create healthy living conditions for employees.

References

1. Smaleva P.G. Advantages of integrated management systems in the context of transition of the organization to sustainable development // *Young scientist*. - 2009. - Issue 7. - S. 30-33. – URL <https://moluch.ru/archive/7/522/> (date of access: 25.09.2019).
2. OHSAS 18001:2007 - "Occupational Health and Safety Management System" (OHSMS).
3. Law of the Republic of Uzbekistan "On industrial safety of hazardous production facilities" of September 28, 2006 ORQ-57.

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI MOLIYA BOZORINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Begmatova Shaxlo Faxriddin qizi

Toshkent moliya instituti

Moliya bozori +99897 765 69 96

Annotatsiya: Ushbu maqolada qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida ma'lumotlar, Qimmatli qog'ozlar bozori moliya bozorining tarkibiy qismi ekanligi xususida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: moliya, qimmatli qog'oz, bank, obligatsiya, chek, to'lov vositalari, kapital, pul

Qimmatli qog'ozlar - o'z egasiga mulkka egalik huquqini va daromad ko'rinishida muayyan pul summasini olish huquqini beradigan pul yoki tovar hujjatlari (aksiya, obligatsiya, akkreditiv, veksel, chek va boshqalar). Qimmatli qog'ozlar taqdim etuvchi yoki egasining ayrim huquqlari qayd etilgan maxsus tarzda rasmiylashtirilgan moliyaviy hujjat. Qimmatli qog'ozlar ma'lum shaxs nomiga yozilgan (ismli), dastlab sotib olgan shaxs nomiga yozilgan va uning roziligi bilan boshqa shaxsga o'tkaziladigan orderli va egasi yozilmaydigan (egasi ko'rsatilmaydigan) turlarga bo'linadi.

Qimmatli qog'ozlarning ayrim turlarining qisqacha tavsifi:

Obligatsiya - obligatsiya chiqargan shaxsdan belgilangan vaqtda o'z nominal qiymatini, shuningdek qiymatga yoki boshqa mulk huquqiga bo'lgan foizlarni olish huquqini tasdiqlovchi qimmatli qog'oz. Obligatsiyalar nominal qiymati teng va chiqarilish va sotib olish shartlari bir xil bo'lgan bir xil qimmatli qog'ozlardan iborat seriyali chiqariladi. Obligatsiyalar turlari: cheklangan tirajli, ro'yxatdan o'tgan, to'lovchi, foizsiz, foizsiz (maqsadli), erkin muomalada.

Tekshirish - joriy hisob varaq egasining bankka ko'rsatilgan summani ma'lum bir shaxsga yoki egasiga to'lovni to'lash to'g'risidagi bankning so'zsiz buyrug'ini o'z ichiga olgan hujjat. Sandiq tovarlar yoki xizmatlar haqini chek orqali to'laydigan yuridik yoki jismoniy shaxs, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkor.

Tekshirish turlari : tashuvchi - yuk tashuvchi, oddiy etkazib berish yo'li bilan berish; ro'yxatdan o'tgan - ma'lum bir kishiga; buyurtma - ma'lum bir shaxs foydasiga yoki uning buyrug'iga binoan.

Hisob varaq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzilgan va veksel egasiga belgilangan muddatda veksel beruvchiga belgilangan miqdorni to'lash to'g'risidagi shartsiz majburiyatni yoki tortmachining buyrug'ini o'z ichiga olgan hujjat.

Veksel qarzdor tomonidan chiqarilgan va imzolangan va belgilangan summani ma'lum bir kishiga o'z vaqtida to'lash majburiyatini yoki uning buyrug'iga binoan boshqa shaxsga to'lovchi va oluvchining ismi ko'rsatiladi.

Hisob varaq. U kreditorlar tomonidan imzolangan va imzolangan va kreditorning qarzdorga (to'lovchiga) belgilangan muddatda uchinchi shaxsga belgilangan summani to'lash to'g'risidagi buyrug'ini anglatadi. Pul o'tkazish yozuvi tugagandan so'ng, veksel topshirilgan shaxs (indossator) veksel bo'yicha da'vo bo'yicha barcha huquqlarga ega bo'ladi. Tasdiqlash veksel yoki unga biriktirilgan varaqning orqa tomoniga yozilishi va indossor tomonidan imzolanishi va uning amal qilishiga biron bir shart bo'lmasligi kerak. Qarzdor vekselni to'lashdan yoki qabul qilishdan bosh tortganligi rasmiy to'lov hujjati bilan to'lanishi yoki qabul qilinmaganligini tasdiqlovchi hujjat bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Ulashish - aktsiyadorlik jamiyati kapitalida muayyan ulushning kiritilishining xavfsizlik dalili. Foydaning bir qismini dividend shaklida olish huquqini beradi.

Shu o'rinda qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida to'xtalib o'tishni joiz deb topdik.

Qimmatli qog'ozlar bozori (QQB) moliya bozorining bir qismidir (ssuda kapitali bozori bilan bir qatorda, valyuta bozori va oltin bozori). Fond bozorida o'ziga xos moliyaviy vositalar - qimmatli qog'ozlar sotiladi. Qimmatli qog'ozlar - bu hujjatlar belgilangan shakl va tasdiqlovchi tafsilotlar mulk huquqi, amalga oshirish yoki topshirish faqat ularning taqdimoti bilan mumkin. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha bu mulkiy huquqlar ssuda va turli korxonalar tashkil etish, oldi-sotdi, mol-mulkni garovga qo'yish va boshqalar uchun pul berish bilan bog'liq. Shu munosabat bilan qimmatli qog'ozlar o'z egalariga belgilangan daromad olish huquqini beradi. Qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan kapital aktsiyadorlik kapitali deb ataladi. Qimmatli qog'ozlar bozorda sotiladigan va aks ettiruvchi maxsus tovardir mulkiy munosabatlar... Qimmatli qog'ozlarni sotib olish, sotish, berish, garovga qo'yish, saqlash, meros qilib olish, hadya qilish, almashtirish mumkin. Ular pulning alohida funktsiyalarini (to'lov vositasi, to'lov vositalari) bajarishi mumkin. Ammo puldan farqli o'laroq, ular universal ekvivalent sifatida harakat qila olmaydi.

Qimmatli qog'ozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solish qog'ozlar bu qimmatli qog'ozlar chiqarilishini ro'yxatdan o'tkazishdan tortib, davlat organlarining qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish huquqlariga qadar bir qator sohalarda qimmatli qog'ozlar bozorida har bir professional ishtirokchining huquq va majburiyatlarini belgilovchi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar talablarini bajarish maqsadida amalga oshiriladi.

Davlat nazorat organlarining vazifalari:

Emitentlarning, qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining faoliyatiga va uning standartlariga majburiy talablarni belgilash;

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini va prospektlarni ro'yxatdan o'tkazish va ularda nazarda tutilgan shartlar va majburiyatlarga rioya etilishini nazorat qilish;

Qimmatli qog'ozlar bozorida professional ishtirokchilar faoliyatini litsenziyalash;

Egalarining huquqlarini himoya qilish tizimini yaratish va qimmatli qog'ozlar bozorida professional ishtirokchilar tomonidan emitentlar va ularning huquqlariga rioya etilishini nazorat qilish;

Tegishli litsenziyasiz qimmatli qog'ozlar bozorida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning faoliyatini taqiqlash va taqiqlash.

Beqaror moliyaviy ahvol va byudjet taqchilligi davlat va munitsipal qimmatli qog'ozlarning (asosan obligatsiyalar) keng tarqalishini oldindan belgilab qo'ydi. Ko'pgina korxonalarining to'lovga layoqatsizligi veksellardan foydalanishga olib keldi. Umuman olganda, moliya bozorining o'zgaruvchanligi bir qator surrogat qimmatli qog'ozlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Qimmatli qog'ozlar davlatning to'lov aylanmasida, investitsiyalarni safarbar etishda katta rol o'ynaydi. Muomaladagi qimmatli qog'ozlar majmui iqtisodiyotning tartibga soluvchi elementi bo'lgan fond bozorining asosini tashkil qiladi. Bu kapitalning erkin pul resurslariga ega bo'lgan investorlardan qimmatli qog'ozlar emitentlariga o'tishini osonlashtiradi. Qimmatli qog'ozlar bozori zamonaviy moliya bozorining eng faol qismi bo'lib, emitentlar, vositachilar va investorlarning turli manfaatlarini amalga oshirishga imkon beradi. RZB ning maqsadi to'plashdir moliyaviy resurslar va bozorning turli ishtirokchilari tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan turli operatsiyalarni amalga oshirish orqali ularni qayta taqsimlash imkoniyatini ta'minlash, ya'ni. vaqtinchalik erkin harakatiga vositachilik qilish .

RCBning vazifalari quyidagilardan iborat:

Muayyan investitsiyalar uchun vaqtincha bo'sh moliyaviy resurslarni safarbar etish;

Xalqaro standartlarga javob beradigan bozor infratuzilmasini shakllantirish;

Rivojlanish ikkilamchi bozor;

Marketing tadqiqotlarini faollashtirish;

Mulk munosabatlarini o'zgartirish;


Bozor mexanizmi va boshqaruv tizimini takomillashtirish asosida aktsiyadorlik kapitali ustidan real nazoratni ta'minlash davlat tomonidan tartibga solish;

Investitsion risklarni kamaytirish;

Portfel strategiyalarini shakllantirish;

Narxlarni ishlab chiqish;

Rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlarini prognozlash.



1-rasm. RZB ning asosiy funksiyalari

Buxgalteriya hisobi funksiyasi barcha turdagi qimmatli qog'ozlarning maxsus ro'yxatlarida (reestrlarida) majburiy hisobga olishda, shuningdek oldi-sotdi, garov, ishonch, konvertatsiya va boshqalar bilan tuzilgan birja bitimlarini qayd etishda namoyon bo'ladi. Nazorat funksiyasi bozor ishtirokchilari tomonidan qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Talab va taklifni muvozanatlash funksiyasi qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish orqali moliya bozorida talab va taklif muvozanatini ta'minlashni anglatadi.

Rag'batlantiruvchi funktsiya yuridik va jismoniy shaxslarni RCB ishtirokchilari bo'lishga undashdir. Masalan, korxonani (aksiyalarni) boshqarishda ishtirok etish huquqini berish orqali daromad olish huquqi (obligatsiyalar bo'yicha foizlar, aksiyalar bo'yicha dividendlar), kapitalni to'plash imkoniyati va mulk (obligatsiyalar) egasi bo'lish huquqi.).

Qayta taqsimlash funktsiyasi mablag'larni (kapitallarni) korxonalar, davlat va aholi, tarmoqlar va hududlar o'rtasida qayta taqsimlashdan (qimmatli qog'ozlar muomalasi orqali) iborat. Federal, mintaqaviy, mintaqaviy va mahalliy byudjetlarning taqchilligini davlat va shahar qimmatli qog'ozlarini chiqarish va ularni sotish orqali moliyalashtirishda korxonalar va aholining bo'sh moliyaviy resurslari davlat foydasiga qayta taqsimlanadi.

Tartibga solish funktsiyasi turli ijtimoiy jarayonlarni tartibga solishni anglatadi. Masalan, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish orqali hajm tartibga solinadi. Davlat qimmatli qog'ozlarini bozorda sotish pul massasi hajmini kamaytiradi, davlat tomonidan sotib olinishi esa, aksincha, bu hajmni oshiradi.

RZB bozorni tartibga solish vositasi sifatida muhim rol o'ynaydi. Qimmatli qog'ozlar bozorining yordamchi funktsiyalariga xususiylashtirish, inqirozga qarshi boshqaruv, iqtisodiyotni qayta qurish, barqarorlashtirishda qimmatli qog'ozlardan foydalanish kiradi.

Samarali ishlaydigan RZB muhim makroiqtisodiy funktsiyani bajaradi, investitsiya resurslarini qayta taqsimlashga hissa qo'shadi, ularning eng foydali va istiqbolli tarmoqlarda (korxonalar, loyihalar) kontsentratsiyasini ta'minlaydi va shu bilan birga moliyaviy resurslarni rivojlanishi aniq belgilanmagan tarmoqlardan chalg'itadi. Shunday qilib, RZB bir nechta mumkin bo'lganlardan biridir moliyaviy hissalar bu orqali jamg'armalar investitsiyalarga aylanadi. Shu bilan birga, RZB investorlarga o'z jamg'armalarini saqlash va ko'paytirish imkoniyatini beradi.

Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasining qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya qilinishini ta'minlash yuzasidan bir qator nazorat tadbirlari amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, Adliya vazirligida 31.07.2012-yilda 2383-son bilan ro'yxatga olingan “Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot taqdim etish va e'lon qilish qoidalari”ning tegishli bandi talablari bajarilmaganligi uchun 10 ta holatda qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining mansabdor shaxslariga nisbatan “Ma'muriy javobgarlik to'g'risida”gi kodeksning 1741-moddasiga asosan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida hujjatlar rasmiylashtirilib chora ko'rish uchun sudlarga yuborildi hamda sudlar tomonidan tegishli ma'muriy jazo choralarini qo'llash yuzasidan qarorlar qabul qilindi. Ma'lumot tariqasida shuni ma'lum qilamizki, quyida nomlari keltirilgan 10 ta qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining mas'ul mansabdor shaxslariga nisbatan sudlar tomonidan 7 mln 290 ming so'm miqdoridagi ma'muriy jarima qo'llanildi hamda davlat budjetiga undirildi.

Xulosa qilib aytganda, moliya vazirligining kapital bozorini rivojlantirish departamenti tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi sifatida ommaviy axborot vositalari va (yoki) o'zining rasmiy veb-saytida amalga oshirilayotgan ishlarni qonunchilik talablari doirasida ochiq va shaffof ravishda qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilariga oshkor etilishi bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Qimmatli qog'ozlar bozori turlarining rivojlanish tarixi" Usmonova X, Toshkent -2006
2. Татьянаников В. Фондовый рынок: новый этап развития // Рынок ^нных буMar. - 2003. - № 6.
3. Sh. Sh Shoxa'zamiy "Фондовый рынок и Рынок ^нных буMar" Книга II, 2005
- 4 World Federation of Exchanges - Statistics/Monthly
5. www.sec.gov
6. www.wikipedia.org
7. www.uzse.com

**A SIGHT IN COMBATING CORRUPTION IN TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

Otamirzayev Oybek Murodullo o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti tyutori

E-mail: otamirzaev2107@gmail.com

Tel: +998940626683

Abstract: this article provides information about the work carried out in the field of fighting corruption at the Tashkent State Law University. Also, the importance of damage caused by corruption to education. The use of advanced innovative approaches and methods in the field of countermeasures is explained in detail.

Keywords: corruption, education, combating corruption, electron university, credit module system.

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETINING KORRUPSIYA
QARSHI KURASHISH YO‘LIGA BIR NAZAR**

Annotatsiya: Ushbu maqola Toshkent davlat yuridik universitetida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, ta’limga korrupsiyadan yetkaziladigan ziyonni ahamiyati. Qarshi kurashish yo‘nalishida ilg‘or innovatsion yondashuvlar va usullarni qo‘llanilishi batafsil yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, ta’lim, korrupsiyaga qarshi kurashish, elektron universitet, kredit-modul tizimi.

**ВЗГЛЯД НА БОРЬБУ С КОРРУПЦИЕЙ В ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

Аннотация: В данной статье представлена информация о работе, проводимой в сфере борьбы с коррупцией в Ташкентском государственном юридическом университете. Также значение ущерба, наносимого коррупцией образованию. Подробно объясняется использование передовых инновационных подходов и методов в области противодействия.

Ключевые слова: коррупция, образование, противодействие коррупции, электронный университет, кредитно-модульная система.

Hozirgi pandemiya, globallashuv va davlatlararo integratsiya jarayonlari

jadallashib borayotgan murakkab bir sharoitda, korrupsiya hanuzgacha dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Aytish lozimki, korrupsiya keltirib chiqarayotgan oqibatlar jamiyatlarni ich-ichidan yemirib, demokratik va huquq ustvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlarining qo‘pol ravishda buzilishiga olib keladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida bo‘lib o‘tgan Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining majlisida¹ sog‘liqni saqlash va ta‘lim tizimi eng korrupsiyalashgan sohalar sifatida qayd etildi. Yillar davomida bu illatga qarshi kurashish borasida qator amaliy harakatlar amalga oshirib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni ham ushbu islohotlarni mantiqiy davomi desak bo‘ladi. Buni natijasi o‘laroq, Toshkent davlat yuridik universitetida ta‘limni “Korrupsiyasiz soha”ga aylantirish yo‘lida bir qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda:

Birinchidan, Universitet Kengashi qarori bilan “Toshkent davlat yuridik universitetining korrupsiyaga qarshi kurash dasturi (siyosati)” ishlab chiqildi. Buni asosida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”lari tayyorlandi.

Ikkinchidan, Toshkent davlat yuridik universiteti O‘zbekistondagi oliy ta‘lim muassasalari orasida birinchi bo‘lib, “Elektron universitet” maqomini oldi. Bu esa inson omilini kamaytirib, universitet tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar to‘liq elektron shaklga o‘zgartirildi. Xususan, shaffoflikni ta‘minlashda o‘quv jarayonlari to‘liq elektronlashtirishni nazarda tutuvchi “Elektron universitet” platformasini joriy etgan holda platformada kafedralar tomonidan shakllantiriladigan savol va topshiriqlar o‘quv boshqarmada ma‘lumotlar banki sifatida jamlanib, keyinchalik talabalarga imtihon va boshqa nazorat turlari jadvaliga muvofiq random tarzda (umumiy bazadan tavakkalchilik asosida saralanib) yetkaziladi. Talabalar, o‘z o‘rnida, yozma topshiriqlarni bajarib elektron tizim orqali topshiradi. Yozilgan ish muallifi haqidagi ma‘lumotlar avtomatik shifrlanib professor-o‘qituvchilarga talabaning F.I.Sh. va boshqa ma‘lumotlari yashirilgan holda tekshirish uchun taqdim etiladi. Bu esa korrupsion holatlarni oldini olishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, universitetda kredit-modul tizimiga o‘tilishi natijasida talabalarning dars mashg‘ulotlaridagi ishtiroki va faolligining ahamiyati oshdi. Bu tufayli talabalar davomatni kunlik nazorati fakultet xodimlari vakolatidan kafedra o‘qituvchilarga o‘tkazilishi shaffoflik yo‘lida muhim qadam bo‘lib xizmat qildi.

To‘rtinchidan, yakuniy nazorat imtihonlarini maxsus jihozlangan kompyuter xonalarida to‘liq kuzatuv kameralari hamda kuzatuvchilar ishtirokida o‘tkazish tizimi

¹ 2022-yil 5-apreldagi Senatda Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining majlisidan

yo'lga qo'yilganligi turli xildagi nojo'ya qoidabuzarliklarni nazorat qilish, talabalar bilim darajasi haqqoniy baholash imkonini berdi.

Beshinchidan, tahlillar va kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, qaysi sohada va qaysi norma va yoki uni amalga oshiruvchi mexanizmida muammo (qiyinchilik), tartibsizlik, mavhumlik, yopiqlik mavjud bo'lsa, o'sha sohada korrupsiya belgilari ko'payaveradi². Bu fikrlar rivojlangan jamiyatlarda o'z tasdig'ini topgan. Bu esa fuqarolarning davlat tashkilotlariga bo'lgan ishonchini oshirib, jamoatchilik nazoratini to'laqonli amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Bu yo'lda Universitetda yakuniy davlat imtihonlari va ishga yangi qabul qilish davomida ochiq va adolatli o'tkazilishiga alohida e'tibor qaratish maqsadida tanlov jarayonlari ijtimoiy tarmoqlar va jahon internet tarmoqlari orqali tanlov jarayoni (onlayn) translyatsiyasi amalga oshirilmoqda. Shuningdek, imtihon savollarini tanlashda *random* usulidan foydalanish esa inson omili kamaytirib, shaffoflik va ochiqlikni ta'minladi.

Bundan tashqari, universitetimizda shunday amaliyot yo'lga qo'yilgan bo'lib, unda o'quv yil boshlanishining dastlabki tanishtiruv haftaligi doirasida 1-bosqich talabalari Universitetimizda talabalari bilishi lozim bo'lgan normativlardan biri bo'lgan Akademik halollik talabalari qoidalari talabalarga tushuntirib beriladi. Unda talabalar hamda o'qituvchilar ilmiy-ijodiy faoliyatidagi akademik halollik qoidalari yoritilgan.

Xasan Ochilovni fikrlariga ko'ra, elektron murojaat tizimi hamda talabalar fikrini o'rganish tizimini joriy etish³ orqali muammolarga yechim topish osonroqdir. talabalarni bu kabi korrupsiyaviy holatlarga duch kelganda Universitetning ishonch telefon raqamlariga yoki O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining(@Anticorbot) hamda Universitetning (@tsul_anti_corrup_bot) telegram sahifalari orqali murojaat etishlari mumkinligi haqida tushuntirishlar berib boriladi. O'quv yili davomida Ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida turli xildagi so'rovnomalar, viktorinalar, davra suhbatlari, ijodiy tanlovlar va mahorat darslari orqali batafsil ma'lumot berib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://kun.uz/uz/news/2022/04/06/sogliqni-saqlash-talim-va-bank-hamon-eng-korrupsiyalashgan-sohaligicha-qolmoqda-senat>
2. Xasan Ochilov, Oliy ta'lim tizimidagi korrupsiya bilan muammolar qanday hal etiladi?. <https://uza.uz/uz/posts/oliy-talim-tizimidagi-korrupsiya-bilan-bo-li-muammolar-anda-03-07-2020>
3. Zamira Esanova, Inson qalbi – korrupsiyadan holi hudud(mi?). <https://fikir.uz/blog/inson-albi--korrupcijadan-holi-hudud-mi.html>

² <https://fikir.uz/blog/inson-albi--korrupcijadan-holi-hudud-mi.html>

³ <https://uza.uz/uz/posts/oliy-talim-tizimidagi-korrupsiya-bilan-bo-li-muammolar-anda-03-07-2020>

БИОТЕХНОЛОГИЯЛАР — XXI АСР САНОАТИ

Иқболхон Хашимова Илҳомжон қизи

Фарғона давлат университети

Биотехнология (магистратура)

+998916504791

Аннотация: Ушбу мақолада республикаимиз биотехнология фани замонавий биотехнология хақида маълумот, Ўзбекистонда биотехнологик маҳсулотларни тадқиқ этиш ва ривожлантириш тугрисида маълумот берилган.

Калит сузлар: Ўзбекистон, биотехнологик, маҳсулотлар, ривожлантириш, қимматбаҳо, ёқилғи, илм-фан

XXI асрга келиб, илм-фан ҳақиқий иқтисодий кучга айланди. Айнан илм-фаннинг қай даражада ривожлангани мамлакат тараққиётининг суръатини ва жаҳон саҳнасидаги ўрнини белгиламоқда. Давлатнинг илмий имкониятлари қанчалик бақувват бўлса, тадқиқотлар натижаларини амалга жорий этиш тизими қанчалик самарали, юқори технологиялардан ва илм-фанга асосланган маҳсулотлардан фойдаланиш миқёси қанчалик кенг бўлса, аҳолининг турмуш тарзи шунчалик юқори бўлади. [Биотехнология. Принципы и применение /Хиггинс И Бест Я Джонс Дж. М.: Мир, 1988. 480 с.]

Ўзбекистонда сўнги йилларда илм-фанни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда: илм-фанни молиялаштириш ҳажми ошмоқда, илмий-тадқиқот муассасалари сони ортиб, қатор инноватсияц марказлари, илмий кластерлар, технология парклари ташкил этилмоқда. 2019-йилнинг 29-октябрда Ўзбекистон Республикасининг “Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида”ги Қонуни қабул қилинди. Мазкур Қонун билан илмий соҳанинг долзарб масалаларини ҳал этиш, илмий-тадқиқот фаолиятини қўллаб-қувватлашни кенгайтириш кўзда тутилган. Жумладан, янги илмий муассасалар ташкил этилади ва янги илмий йўналишлар ривожлантирилади. Фан ва таълимни ривожлантириш борасидаги ишларни давом эттириш мақсадида 2020-йил мамлакатимизда “Илм-маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили” деб эълон қилинди. Давлатимиз раҳбари Олий Мажлисга мурожаатида ҳар йили фаннинг бир неча устувор тармоқларини аниқлаш ва ривожлантириш зарурлигини таъкидлади. Бу йил геология, математика, кимё ва биология соҳаларидаги фундаментал ва амалий тадқиқотларни фаоллаштириб, олимлар учун барча шароитлар яратилади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2020-йил 31-январь куни бўлиб ўтган фан ривожига бағишланган йиғилишда юртимиз илм-фан арбоблари мақомини кўтариш ва илм-фаннинг

истикболли йўналишларини ривожлантиришни тўлиқ рағбатлантириш сиёсатининг давом эттирилишини таъкидлади.[Биотехнология. Принципы и применение /Хиггинс И Бест Я Джонс Дж. М.: Мир, 1988. 480 с.]

Замонавий биологиянинг жадал ривожланаётган соҳаларидан бири биотехнология бўлиб, у фан ютуқлари ва ишлаб чиқариш жараёнини бир-бирига боғлайди. Биотехнология микроорганизмлар, ўсимлик ва ҳайвон тўқималари, органеллалар, рекомбинат ДНК ҳамда тўлиқ генетик модификацияланган организмлар каби турли биологик тизимлардан амалда фойдаланишга замин яратади. Айнан биотехнология туфайли экинларни химоя қилишнинг замонавий биологик усуллари, биодegradатсион полимерлар ва табиатни муҳофаза қилиш технологиялари ишлаб чиқилган. Масалан, биополимерлар ҳозирда кенг қўлланилаётган пластмассаларга нисбатан катта афзалликларга эга, негаки улар ўзидан захарли моддалар чиқармайди, атроф-муҳитни ифлослантirmайди, фойдаланиб бўлгандан кейин парчаланиш хусусиятига эга. Генларни конструкциялаш нафақат ўсимликларнинг, балки ҳайвонот дунёсини ҳам назорат қилиш ва турли хусусиятларга эга бўлган янги организмларни яратиш имконини беради. Замонавий биотехнологиялар анчайин ранг-баранг, шу боис ҳам асримизни биотехнологиялар асри деб аташмоқда.[Биотехнология - сельскому хозяйству /Лобанок А Г М.В А нисимова Н.И. и др. М инск: У р о 4 й , 1988 , 99'с,]

Замонавий биотехнологиялар инсон ҳаёти сифатини сезиларли даражада яхшилаши ва мамлакат иқтисодий ўсишининг ривожланишига ёрдам бериши мумкин. Биотехнология туфайли янги самарали диагностика воситалари, вакциналар, дори-дармонлар, озик-овқат маҳсулотлари яратилмоқда, қишлоқ хўжалиги экинларининг, жумладан, дон маҳсулотларининг ҳосилдорлиги ошмоқда. Бу ўз навбатида аҳоли сони кун сайин ўсиб бораётган курраи заминимиз учун ўта долзарбдир.Бундан ташқари, биотехнология биомассаларни қимматбаҳо маҳсулотга — ёқилғига айлантириш имконини ҳам беради.

Биотехнология, амалий фан саналса-да, фундаментал илмий тадқиқотлар билан узвий боғлиқ. “Белгиланган хусусиятларга эга“ организмларни яратиш, генетик касалликларни даволаш, танадан ташқарида оқсил массасини ишлаб чиқариш, организмга “биологик чипларни“ жойлаш— мана шу йўналишларнинг барчаси мураккаб тадқиқотлар, замонавий ускуналар ва юқори малакали мутахассисларни талаб қилади.

Бутун дунёда замонавий биотехнология инвесторларнинг диққат эътиборида бўлиб, биотехнология саноатига киритилган инвестицияларнинг ўсиши 32% ни ташкил этди. Мутахассислар ва таҳлилчиларнинг фикрича, биотехнологиялар XXI асрнинг энг жадал ривожланаётган ва энг даромадли

бизнесига айланишини тахмин қилмоқда. Уларнинг ҳисоб-китобларига кўра, биотехнологияларнинг жаҳон бозоридаги кўлами 2025-йилда 2 триллион АҚШ доллари даражасига етади. АҚШ, Хитой, Ҳиндистон ва Европанинг Генентеч, Новартис, Мерск&Со, Пфизер, Жоҳнсон & Жоҳнсон, Санофи каби компаниялар фарматсевтика биотехнологиялари соҳасида тан олинган етакчилардан саналса, трансмиллий Монсанто компанияси ГМОларни яратиш ва ишлаб чиқаришда илғорликни кўлдан бермаяпти. Биотехнология соҳаси қанчайин истиқболли ва янги бозорларни забт этишда улкан салоҳиятга эга бўлмасин, Ўзбекистонда ва умуман, Марказий Осиё давлатларида ҳали етарлича ривожланмаган. Юртмизда ишлатиладиган биотехнологик маҳсулотларнинг 90% дан ортиғи импорт қилинади. Шу билан бир қаторда, ривожланган ва, ҳатто, ривожланаётган мамлакатлар билан ҳам солиштирганда биотехнология маҳсулотларидан фойдаланиш кўрсаткичи бизда ўта паст. [Давронов К , Зупаров М.А., Турабова ЯУ. Кишлоқ хужалиги биотехнологияси. (маърузалар матнлари) -Т ., 2000 Б 60-82]

Биотехнология соҳаси қанчайин истиқболли ва янги бозорларни забт этишда улкан салоҳиятга эга бўлмасин, Ўзбекистонда ва умуман, Марказий Осиё давлатларида ҳали етарлича ривожланмаган. Юртмизда ишлатиладиган биотехнологик маҳсулотларнинг 90% дан ортиғи импорт қилинади. Шу билан бир қаторда, ривожланган ва, ҳатто, ривожланаётган мамлакатлар билан ҳам солиштирганда биотехнология маҳсулотларидан фойдаланиш кўрсаткичи бизда ўта паст.

Шуни эътироф этиш керакки, Ўзбекистонда биотехнологик маҳсулотларни тадқиқ этиш ва ривожлантириш учун катта илмий салоҳият мавжуд. Бироқ биотехнологиялар саноатининг йўқлиги боис аксарият ишланмалар ишлаб чиқаришга жорий этилмай қолиб кетяпти, биотехнология маҳсулотларининг ўзи эса кичик ҳажмларда лаборатория ускуналарида ишлаб чиқарилмоқда.

Қишлоқ хўжалигида кимёвий ўғитлар ва пеститсидлардан фойдаланиш тупроқнинг емирилиши, сув ва ҳавонинг ифлосланиши муаммоларига олиб келади, аҳоли саломатлигига салбий таъсир кўрсатади. Бугунги кунда қишлоқ хўжалик майдонларидаги тупроқларнинг 54% га яқини пеститсидларц билан ифлосланган бўлиб, 80% майдонлардаги тупроқ таркибида кўп миқдорда зарарли ва хавфли моддалар мавжуд. Ўтган ўн йиллар давомида, ерларнинг балл-бонитети 58 дан 55 га тушиб кетди. Биотехнологияларнинг иқтисодий сектори сифатида мавжуд эмаслигининг бир неча сабаблари бор. Хусусан, давлат томонидан мақсадли қўллаб-қувватланмагани, зарур иқтисодий шароитларнинг бўлмагани, мазкур йўналишдаги стартапларнинг ривожланмагани, қонунчилик даражасида био-хавфсизлик масалаларининг тартибга солинмаганлиги мазкур соҳадаги яхли тизимининг шаклланишига тўсқинлик қилган. [Биотехнология -

сельскому хозяйству /Лобанок А Г М.В А нисимова Н.И. и др. М инск: У р о 4 й , 1988 , 99'с,]

Ҳозирда мавжуд био-хавфсизликка доир талаблар фақатгина турли санитар меъёрлардагина акс этган бўлиб, таркибида генетик модификатсияланган организмлар (ГМОлар) мавжуд бўлган озиқ-овқат маҳсулотларига нисбатан қўлланилади. Бундан ташқари, эскирган таълим стандартлари, замонавий ўқув лабораторияларининг йўқлиги бу соҳада тайёрланаётган кадрлар сифатига салбий таъсир кўрсатмоқда. Шунингдек, биотехнологик маҳсулотларни рўйхатдан ўтказиш ва сертификатлаш механизмларига эга бўлмаган меъерий-ҳуқуқий база ҳам такомиллаштирилиши зарур..[Голубовская Э.К. Биологические основы очистки воды Высшая школа, 1978. 270 с.]

Хулоса урнида шуни айтиш керакки, таклиф этилаётган чора-тадбирлар тиббиёт, қишлоқ хўжалиги ва саноатда товарлар ишлаб чиқариш (хизматлар кўрсатиш) ва экспортни оширишда биотехнологиялар салоҳиятидан фойдаланиш имконини беради. Республика илмий салоҳиятини халқаро даражага кўтариб, Ўзбекистоннинг Марказий Осиё минтақасидаги биотехнология бозорида етакчи ўрин эгаллашига замин яратади.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати:

1. Биотехнология. Принципы и применение /Хиггинс И Бест Я Джонс Дж. М.: Мир, 1988. 480 с.
2. Биотехнология - сельскому хозяйству /Лобанок А Г М.В А нисимова Н.И. и др. М инск: У р о 4 й , 1988 , 99'с '1989 2°80 М-^Агропромиздат
3. Варфоломеев С.Д., Панцхава Е.С. Биотехнология поеобоя^п вания солнечной энервди., Современное состояние пром перспективы // Биотехнология. М.: Наука, 1984. '
4. Голубовская Э.К. Биологические основы очистки воды Высшая школа, 1978. 270 с.
5. Давронов К , Зупаров М.А., Турабова ЯУ. Кишлоқ хужалиги биотехнолягияси. (маърузалар матнлари) -Т ., 2000 Б 60-82

MARKAZIY BANKNING SAMARALI MILLIY TO'LOV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH SOHASIDAGI FAOLIYATINI TAHLILI

Inomiddinov Ulug'bek To'xtasin o'g'li
Bank-Moliya akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola markaziy bank samarali milliy to'lov tizimini yo'lga qo'yish va uni takomillashtirish masalalarini muhokama etadi.

Kalit so'zlar: Markaziy bank, to'lov tizimi, pul birligi, mulk.

KIRISH

Iqtisodiyotda turli mulkchilik shakllariga tegishli bo'lgan kompaniya va firmalar faoliyat ko'rsatib, ular doimo bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Chunki korxonalar va tashkilotlar bir-birlari bilan oldi-sotdi munosabatlarini o'rnatadi, bu munosabatlar o'zaro hisob-kitoblar orqali hal qilinadi. Bu hisob-kitoblarni o'tkazish uchun ma'lum bir tizim mavjud bo'lishi lozim. Bunday tizim to'lov tizimi deb yuritiladi.

Har bir davlat to'lov tizimlari turli shakllarda tashkil etiladi, lekin ularning maqsadi doimo bitta, ya'ni aholiga va xo'jalik sub'ektlariga o'z pul mablag'larini bir bankdagi hisobvaraقدan boshqa bank hisobvarag'iga tez o'tkazib berishni ta'minlashdir.

ASOSIY QISM

Shuni ta'kidlash lozimki, to'lov tizimining iqtisodiyotda tutgan o'rni Markaziy bank faoliyati bilan chambarchas bog'liq, chunki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi PF-5296-sonli farmoniga binoan Markaziy bankning strategik maqsadli yo'nalishlaridan biri etib to'lov tizimi barqarorligi va rivojlanishi deb belgilandi.

Bundan tashqari to'lov tizimi uchun o'z mablag'lari yoki tijorat banklari, shu bilan birga, boshqa tijorat tashkilotlarining mablag'larini qo'shish evaziga texnik vositalar, dasturlar, nizomlar, kommunikatsiyalar bilan ta'minlash jarayonida ham Markaziy bankning to'lov tizimi orqali to'lov xizmatlarini bajaruvchi rolini ko'rishimiz mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

To'lov tizimida Markaziy banklarning ishtiroki turlicha bo'lishiga qaramay, ularning maqsadlari deyarli o'xshash, xususan, kamroq xarajat qilib minimal tavakkalchilik asosida foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondiruvchi tizimni taminlashdan iboratdir [2].

O'zbekiston Respublikasi to'lov tizimi ham Markaziy bank tomonidan tashkil qilinib, tizimning harakati hisob-kitob markazlari orqali amalga oshiriladi. Respublika Markaziy banki hisob-kitob markazi faoliyatini muvofiqlashtirib, nazorat olib boradi.

Yuqoridagilarning har birini xo‘jalik sub’ekti to‘liq bajargan holda o‘z maqsadiga hech qanday urinishsiz epishishi mumkin. Har bir bank mavjudekan, uning faoliyati to‘lovlar o‘tkazish, hisob-kitoblar qilish, to‘lov tizimi bilan bog‘liq. To‘lov tizimi, uning samarali faoliyat ko‘rsatishi va bir butunligi Markaziy bank tomonidan ta‘minlangan.

Hozirgi vaqtda respublikada jismoniy shaxslar va ulardan to‘lovlarni qabul qilib oluvchi sub’ektlar o‘rtasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblarning, shu jumladan, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, uy-joy kommunal, mobilaloqa, raqamli televidenie, notarial va boshqa xizmatlar bo‘yicha to‘lovlarni dam olish kunlarisiz kechayu kunduz (24/7) real vaqt rejimida hamda bankhisobvaraqlariga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimlari orqali amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida Markaziy bankning hisob-kitoblarkliring tizimi yaratilgan bo‘lib, bugungi kunda mazkur tizim orqali barcha tijorat banklari to‘lovlarni amalga oshirmoqda.

So‘nggi yillarda Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi orqali yuqoridagi xizmatlar bo‘yicha amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 2022 yil davomida 2021 yilga nisbatan 197,2 foizga ortib, 20030,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bu, o‘z navbatida, ma‘lumotlar bazasining markazlashgan tizimlari shakllanayotganligidan darak beradi.

Shu bilan birga, respublikamizdagi ko‘pchilik banklar amaliyotda mijozlarning shartnoma shartlarida ko‘rsatilgan takliflar va yangiliklarni yaxshi tushunmasliklarining guvohi bo‘lmoqda. Natijada bir qator banklarga mahsulotlar turlarini standart shartli ko‘rinishgacha qisqartirishlariga majbur bo‘lmoqda.

Shuning uchun hozirda Markaziy bank rahbarligida mamlakatda moliyaviy savodxonlikni oshirish komissiyasi ish olib bormoqda. Ular aholiga pul mablag‘lari bilan ishlash va ularni boshqarish bo‘yicha yetarli maslahatlarni berish, o‘qitish faoliyati kabi vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan.

Kommunikatsion infratuzilmaning viloyatlarda yaxshi rivojlanmaganligi muammolardan biri hisoblanadi. Chunki elektron kanallar ko‘pchilik chekka hududlarda yaxshi rivojlanmagan. Shuning uchun viloyatlarda offlayn-qarorlar faol qo‘llanilib kelinmoqda.

So‘zsiz masalaning texnik tomoni IT-mutaxassislar tomonidan ta‘minlanishi zarur, biroq mijozlarni qo‘llab-quvvatlash va ular bilan bevosita ishlashda bank xodimlari o‘zlari ishtirok etishlari lozim.

Binobarin, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan avtomatlashtirilgan tizim faoliyati nafaqat ma‘lumotlarni qayta ishlash va ularni uzatish vositalariga, balki butun majmuani boshqarish va unga xizmat ko‘rsatish sohalarida band bo‘lgan mutaxassislarga ham bog‘liqdir.

Respublikamizda to‘lov tizimi yil sayin takomillashib bormoqda. Buesa banklararo hisob-kitoblarni o‘tkazish texnologiyalariga qator o‘zgarishlar kiritilishini

taqozo qilmoqda. Banklararo hisob-kitoblar ham mazmunan, ham sifat jihatidan avvalgi yillariga nisbatan o‘zgarmoqda.

Bugungi kunda banklar ikkita modifikatsiyadagi, ya’ni «HUMO» tizimi va Uzcard tizimidagi amaldagi kartalar uchun terminallar sotib olinmoqda. Ulardan foydalanishda xaridor sotuvchi yoki kassirga doim maxfiy saqlanishkerak bo‘lgan PIN-kodni ma’lum qilishi kerak bo‘lmaydi.

«HUMO» tizimi terminallari yordamida nafaqat uning kartalari, balki Mastercard, Visa, UnionPAY kartalari vositasida ham bemaolol haq to‘lash mumkin bo‘ladi.

Bunga erishish uchun amalga oshirilgan ishlar bilan birga yana bir qator vazifalarni amalga oshirish talab etildi, ya’ni [3]:

1. Aholiga xizmat ko‘rsatadigan barcha turdagi transport vositalarida, birinchi navbatda, metro va hokazolarda yo‘l xaqlarini bank plastik kartalari yoki maxsus transport kartalari orqali to‘lashni to‘liq joriy qilish.

2. Markaziy bank Kliring tizimi infratuzilmasida axborot muhofazasi va xavfsizlikni hamda axborot tizimlarining samarali ishlashini ta’minlash.

Banklarda ham keng miqyosli o‘zgarishlar yuz beradi. Hozir plastik kartalar orqali barcha operatsiyalarni Yagona protsessing markazi amalga oshiradi. Vaqt o‘tishi bilan bunday markazlar ko‘payadi, hatto har bir bankda o‘ziniki bo‘lishi mumkin. Bu to‘lov tizimi ishida uzilishlar bo‘lishi xavfini kamaytiradi, banklar taklif etadigan mahsulotlar lineykasini kengaytirish imkonini yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ostrovskaya O. "Bank ishi" izohli lug'ati Helios ARV.2011
2. Kozlova E.P., Babchenko T.N. “Xisob-kitoblar to‘plami yangi buxgalteriya rejasiga muvofiq buxgalteriya hisobi. -M.: Buxgalteriya hisobi, 2011 yil
3. Porfenov K.G. “Bank hisobi va operatsion texnikasi tijorat banklari” nashri 3-tasvir. M.: YoAJ Buxgalteriya byulleteni 2011 yil
4. Fisher S., Dornbusch R., Shmalenzi R. “Iqtisodiyot” 2012 y.

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ПРЕДМЕТНОЙ ОЛИМПИАДЫ ПО МАТЕМАТИКЕ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ	3
2	BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INTEGRATIV TA‘LIM METODLARI	8
3	ОРГАНИЗАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СЕКЦИОННЫХ ЗАНЯТИЙ СТУДЕНТОВ В ВУЗЕ	11
4	ЁШЛАР ТАРБИЯСИДА ЖИСМОНИЙ ВА АМАЛИЙ ТАЙЁРГАРЛИК ЖАРАЁНЛАРИ	17
5	BUYRAK VA O‘T YO‘LLARIDA TOSH HOSIL BO‘LISHINING KIMYOVIY ASOSLARI	21
6	THE IMPORTANCE OF TEACHING ENGLISH THROUGH SONG IN PRIMARY GRADES	26
7	UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MUASSASASI RAHBARLARI BOSHQARUV FAOLIYATI	29
8	YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKILLANTIRISH, MAKTABDA EKOLOGIYA FANINI JORIY QILISH	33
9	URMA VA ZARBLI CHOLG‘U ASBOBLARI	36
10	TA‘LIM TIZIMIDA AYOLLAR	39
11	АЛЬФРЕД НОБЕЛЬ И НОБЕЛЕВСКИЕ ПРЕМИИ	47
12	INTENSIV BOG‘DORCHILIKNI HUDUDIY TASHKIL ETISH VA RIVOJLANISHI	55
13	AREAS OF APPLICATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE	61
14	TYPES OF CONFLICT BETWEEN ADOLESCENTS AND CONFLICT MANAGEMENT	65
15	USING MNEMONIC KEYWORD METHOD IN ENGLISH VOCABULARY TEACHING	69
16	BADIIY TASVIR VOSITALARI TAHLILI (ANALYSIS OF ARTISTIC IMAGE TOOLS / АНАЛИЗ СРЕДСТВ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА)	78
17	MODERN TECHNOLOGIES AND INTERACTIVE GAMES IN TEACHING ENGLISH TO SCHOOL LEARNERS	81
18	БЕВОСИТА СОЛИҚЛАРНИ ҲИСОБЛАШ ВА УНДИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	84
19	DIDACTIC BASES OF PROFESSIONALLY ORIENTED TEACHING FRENCH TO LEGAL STUDENTS	96
20	TURKIY TILLARDA SHAXSNING XARAKTER HAMDA TASHQI BELGI XUSUSIYATLARINI ZONIMLAR YORDAMIDA IFODALANISHI	101
21	GIPOTERIOZ HOLATIDA AYOLLAR BACHADONINING ANATOMIK O‘ZGARISHLARI	104

22	XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARI UCHUN AHAMIYATI	108
23	BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING O'ZIGA XOS AHAMIYATI	112
24	UMUMTA'LIM MAKTABLARNING BOSHLANG'ICH TA'LIMIDA KASBGA YO'NALTIRISH	115
25	BO'LAJAK KIMYO FAN O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH	120
26	КОРХОНАЛАРНИНГ ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШДА ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИНГ ЎРНИ	123
27	YEM-HASHAK O'SIMLIKLARINING QISHLOQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI	130
28	РАЗРАБОТКА КОНТРОЛЬНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ ПО ОСОБЕННОСТЯМ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРОМЫШЛЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ НА ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ОБЪЕКТАХ	134
29	MORPHOLOGICAL CLASSIFICATION OF ENGLISH PLACE NAMES (TOPONYMS)	136
30	ИНТУИТИВНО-СИНЕРГЕТИЧЕСКОЕ РЕШЕНИЕ ГЛОБАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ	139
31	ISHLAB CHIQRISH OB'EKTLARIDA SANOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BO'YICHA MONITORING QILISH CHORA-TADBIRLARINI ISHLAB CHIQRISH	145
32	ИНТУИЦИЯ И ЕЕ СИНЕРГЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ В АБУ АЛИ ИБН СИНО	151
33	ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ТОВАРЛАРНИ ИШЛАБ ЧИҚАРУВЧИ ВА ҚАЙТА ИШЛОВЧИ КОРХОНАЛАРНИНГ ЎЗАРО ҲАМКОРЛИГИ НЕГИЗИДА АГРОКЛАСТЕРЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ	155
34	NOFREDGOLM INTEGRAL TENGLAMALARINING AYRIM TADBIQLARI	158
35	DEVELOPMENT OF MONITORING MEASURES FOR THE SPECIFIC FEATURES OF ENSURING INDUSTRIAL SAFETY IN PRODUCTION FACILITIES	162
36	QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI MOLIYA BOZORINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA	165
37	A SIGHT IN COMBATING CORRUPTION IN TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW	170
38	БИОТЕХНОЛОГИЯЛАР — XXI АСР САНОАТИ	173
39	MARKAZIY BANKNING SAMARALI MILLIY TO'LOV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH SOHASIDAGI FAOLIYATINI TAHLILI	177

Note!—Pedagogs || articles and numbers in the legal, medical, social, scientific journal, information in classes, information rights and the correct authorities are responsible for the accuracy of the authorities.

Editor in chief
Saidova Mohinur Jonpo'latovna

Executive Secretary
Abdurahmonov Boburjon

Preparing for publishing
Xoliqov Toxirjon Shavkatjon o'g'li